

Shamoxmud Sharaxmurov

CHOLG'U ANSAMBLI MAHORATI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
YUNUS RAJABIIY NOMIDAGI
O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN’ATI INSTITUTI**

SHAMAXMUD SHARAXMETOV

CHOLG‘U ANSAMBLI MAHORATI

*Oliy o‘quv yurtlarining 70211502 – Cholg‘u ijrochiligi (an’anaviy
cholg‘ular) mutaxassisligi 1-bosqich magistr talabalari uchun o‘quv
qo‘llanma*

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UDK: 782.1(075)

KBK: 85.314.1

Sh 12

Sharaxmetov Shamaxmud.

Cholg'u ansambli mahorati [Matn]: o'quv qo'llanma / Sh.Sharaxmetov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 108 b.

Mazkur o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining 70211502 – Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular) mutaxassisligi 1-bosqich magistr talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda cholg'u ansambli mahorati fanining o'rni va xususiyatlari, repertuar tanlash va tizimli o'rganish haqida uslubiy ma'lumotlar berilgan bo'lib, nazariy va tarixiy bilimlarga tayangan holda cholg'u ansamblida ijrochilik mahorati sifatini aniqlash va rivojlantirish borasida amaliy ishlarni bajarishni o'rgatadi.

Mas'ul muharrir:

R.Qosimov – Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti professori.

Taqrizchilar:

S.Azizboyev – Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti professori.

K.Mirzayev – O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist.

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 21-avgustdagi 316-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan. Guvohnoma raqami: 575907

ISBN 978-9910-06-736-5

© Sharaxmetov Sh., 2025.

© "Bookmany print" nashriyoti, 2025.

KIRISH

Bugungi kunda Respublikamizda milliy qadriyatlarning targ'ibotiga, jumladan, milliy cholg'ularning o'rganilishiga katta ahamiyat berilayotgani bejiz emas, bu borada Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391-sonli qarori, "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-112-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 536-son qarori va bir qator Qonun va farmonlarda o'quv-tarbiya jarayoni sifatini jahon mezonlari darajasiga ko'tarish, yoshlarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni idrok etish mafkurasi asosida ularni Vatanga mehr-muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, o'quv maskanlarida o'qitilayotgan har bir fanning asosini tashkil etilishi uqtirilgan.

Kelajagimiz bo'lmish yosh avlodni o'z ixtisosligi bo'yicha fanni mukammal egallagan, nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lgan barkamol inson qilib tayyorlash bugungi kunning asosiy vazifalaridandir. Yuqoridagi davlat hujjatlaridan kelib chiqib respublikamiz olimlari, uslubiyotchilari, tajribali o'qituvchilari har bir fanga yangicha yondashib o'quv rejalarini, dasturlarni, darsliklarni, o'quv-qo'llanmalarni qayta ishlab takomillashtirmoqdalar, jahon andozalariga yaqinlashtirish ustida ish olib bormoqdalar.

Milliy cholg'ularda ijro etishni egallash nozik va ma'suliyatli vazifa ekanligi hammamizga ma'lum, shuning uchun ham o'qituvchi-ustoz o'z shogirdlarining yoshi, xarakteri, bilim doirasini hisobga olgan holda birinchi darsdanoq ijodiy fikrlashga o'rgatib borishi zarur. Buni muvaffaqiyatli bajarish uchun ota-onalar, boshqa fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda ish olib borilishi zarur. O'qituvchi shoshilmay, o'quvchisi bilan cholg'uda tovush chiqarish madaniyatini shakllantirib borishiga e'tibor qaratmog'i lozim. Dastlabki ijro oddiy zarblar bilan boshlanmog'i va asta-sekin murakkablashmog'i, nazariy bilim, amaliy ko'nikma bilan mustahkamlanishi kerak. Talabalarga o'rganayotgan cholg'usi haqida tushuncha berishi, cholg'ularning takomillashtirilganligi xususida gap yuritilishi albatta foydadan holi bo'lmaydi. Ijrochilik san'ati takomillashib, tobora rivojlanib borishi, cholg'ular uchun yangi-yangi maxsus asarlar yaratilishi yosh ijrochilarni tarbiyalashda, texnik mahoratlarini oshirishda, katta ahamiyatga egadir. Buning uchun doimiy ravishda mashq, gamma, etyudlardan foydalanib borish, talabalarning badiiy asarlarni o'zlashtirishida yengillik tug'diradi, ijro malaka va ko'nikmalarini oshiradi.

O'qituvchining eng muhim vazifalaridan biri, talabalarning badiiy va texnik ijrochilik imkoniyatlarini nazarda tutib, ularga aniq topshiriqlar berib borishi, ularning bajarilishini muntazam ravishda nazorat qilishi, gamma, arpedjio, mashq va etyudlar ustida o'quv yili davomida ish olib borishi, turli zarblar, dinamik, ritmik variantlarni qo'llashi tavsiya etiladi. O'qituvchi talabalarni amaliy faoliyatga tayyorlar ekan, ularning musiqiy saviyasini har tomonlama kengaytirishi, ijodiy faolligini oshirishi, o'rganilishi shart bo'lgan asarlardan tashqari turli musiqiy adabiyotlar bilan ham tanishtirib borishi kerak, shuningdek. mustaqil tahlil qila olish malakalarini o'stirishi talab etiladi.

Yuqorida keltirilgan fazilatlariga erishishda, ko'p yillik tajribamizga tayangan holda, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash va unga ta'lim berish ishida o'quv-tarbiyaning samaradorligini ta'minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim deb. hisoblaymiz:

- cholg'uda ijro etish uchun zarur bo'lgan tushunchalarni shakllantirish;
- ijro asoslarini o'zlashtirish ishini cholg'uda bevosita bajarish;
- o'qituvchi va talabalarni samarali faoliyat ko'rsatishiga erishish;
- mashhur sozandalar ijrosi bilan tanishtirish;
- talabalar bilimlarini nazorat qilib, yutuq va kamchiliklari ustida doimiy ish olib borish va shularga o'xshash tadbirlar amalga oshirish kerak bo'ladi.

Balki bu fikr to'g'ridir, biroq G.Abertning yozishicha: "Yunon musiqasi keyingi davrlarda erishgan mavqeisiga osiyoliklarsiz hech qachon erisha olmasdi". Vaholanki, Ovro'pa madaniyati tarixi qadimiy yunonlarga borib taqaladi.¹ Boz ustiga "monoxord" ixtiro etilgandan bir necha ming yillar oldin chang cholg'umizning ko'rinishiga monand cholg'ular bo'lgan. Farmerning fikricha, qutisimon shaklidagi torli cholg'ular qadimgi davr xalqlari ossuriyaliklardan kirib kelgan. Lekin ossuriyaliklar bu cholg'uni ixtiro qilishmagan, ular qadimgi sivilizatsiyalarga mansub xalqlar (shumerliklar)dan qabul qilishgan.² (Shumerliklar - Mesopotamiyaning janubiy qismida yashagan aholi). Ana shunday cholg'u qadimshumer yodgorliklardan birida tasvirlangan.

Bu cholg'uning yuqori qismi yoysimon rezonator qutidan iborat bo'lgan, unga turli uzunlikda torlar (5-7ta) tortilib, torushlagichdan osilib turgan.³

Chang(arfa) asrlar davomida yuksalish va o'ziga nisbatan e'tiborni pasayib borish davrlarini, tashqi qiyofasini o'zgarishini boshidan kechirsada, uning vorisiylik rishtalari uzilmadi.

Bugunda chang(arfa)ga o'xshash cholg'ularni ba'zi bir xalqlarda uchratish mumkin. Jumladan, gruzinlarda – changi, abxazlarda – ayumaa, qozoqlarda – adirna, osetinlarda – duadastanon, shimoliy-sharqiy Sibir Mansida – tor-sapl-yux va h.k. Soha mutaxxassislari, olimlar: «arfa cholg'usining rivojlanishi natijasida simbal, gusli, sitra, chang, qonun, santur kabi cholg'ular dunyoga keldi», -degan fikrlarni bildirishmoqda.

Qolaversa, o'zining uzoq tarixiy rivojlanishining ma'lum bir bosqichida (so'ngi O'rta asr) arfa yo'qolib ketish arafasida turgan bir davrda, qutisimon chang sozi o'zidan oldingi arfasimon chang cholg'usini nomini olib, O'rta Osiyo arfasining ikkinchi umrini boshlab beradi.⁴

Taqdim etilayotgan mazkur o'quv qo'llanmada magistr bosqichida tahsil oladigan talabalarining bilim va qobiliyatlarini muntazam oshirib borish, o'z sohasini jadal taraqqiy etishda mas'uliyatni chuqur xis etish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Muallifdan

¹ Музыкальная культура Древнего мира. Ленинград, 1937., бет-118.

² Т.Вызго. Музыкальные инструменты Средней Азии. Москва 1980г., бет-64

³ O'sha manba.

⁴ Р.Садоков. Музыкальная культура Древнего Хорезма. Москва -1970й., бет-77.

I BOB. SHASHMAQOM, XORAZM MAQOMLARI VA FARG‘ONA–TOSHKENT MAQOM CHOLG‘U YO‘LLARIDAN

1.1 Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg‘ona–Toshkent maqom cholg‘u yo‘llaridan birini tanlash. Tanlangan asarning audio va video yozuvlari bilan tanishish

“Maqom” atamasi arabcha “maqam” so‘zidan olinib, lug‘aviy ma‘nosi “o‘rin”, “joy”, “makon” demakdir. Sharq musiqa nazariyasida u dastlab, torli cholg‘u dastasiga barmoq bosib tovush chiqariladigan “joy”ni, ya‘ni pardani anglatgan. Mazkur atama davrlar o‘tib o‘zining ma‘no doirasini kengaytirib boradi, jumladan, buyuk alloma Abu Nasr Forobiy (873-950), undan keyin esa Abu Ali ibn Sino (980-1057), Ibn Zaylaning (XI asr) musiqa ilmiga doir asarlarida u bitta musiqiy tovushni anglatgan bo‘lsa, buyuk musiqashunos olim Safiuddin Urmaviy (1216-1294) tadqiqotlarida musiqiy tovushlar majmuasi, ladni bildirgan. Temuriylar musiqa madaniyati davridan e‘tiboran esa mustaqil musiqiy janr sifatida qo‘llanila boshlaydi. Maqom atamasining musiqa amaliyotidagi o‘rni va ahamiyati xususida mahalliy olimlarimiz ham atroflicha fikr bildirganlar. Jumladan, atoqli olim Is‘hoq Rajabov bu atamaga quyidagicha ta‘rif bergan: “Maqom – ma‘lum lad asosiga mos keladigan va muayyan pardadan boshlanadigan kuy va ashulalar majmuasidir. Hozirgi kunga qadar maqom kuy va ashula yo‘llari turkumi ma‘nosini ifodalab keldi”⁵. Maqomshunos olim Ravshan Yunusov ta‘rifiga ko‘ra, maqom bu:

- parda;
- tayanch parda;
- tovushlar tuzilmasi;
- pardalar uyushmasi;
- shakl, andoza;
- ijod turi, janr;
- bir qismli yoki turkumli ashula yo‘llari;
- bir qismli yoki turkumli kuylar;
- muayyan qonuniyatga asoslangan musiqiy asar;
- muayyan pardalar zaminidagi musiqiy asarlar majmuasi;
- o‘ziga xos musiqiy uslub va h.k.⁶

• San‘atshunoslik fanlari doktori, professor Oqilxon Ibrohimov mahobatli maqom san‘atining tarixiy ildizlariga urg‘u berib, uni ikki yirik davrga ajratadi: “Birinchi davrni maqomlarning qadimiy kelib chiqish ildizlari, qadimiy kuy-ohang qatlamlari tashkil etadi. Tabiiyki, bu davrda tom ma‘nodagi maqomlar bo‘lmagan. Zotan, bizgacha yetib kelgan maqomot tizimlarining shakllanish jarayonlari ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning ma‘lum bosqichiga dahldor bo‘lib, bu ikkinchi davrni tashkil etadi”⁷.

Maqom san‘atining yuzaga kelishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar musulmon olamida IX-X asrlardayoq yuzaga kelgan edi. Ehtimol, o‘sha davrlarda O‘n ikki

⁵ Rajabov I. Maqomlar. T., 2006, 63-b.

⁶ Yunusov R. O‘zbek maqomlari. T., 2018, 9-b.

⁷ Ibrohimov O. Maqom asoslari. T., 2018, 10-b.

maqom tizimiga (XIII asr) qadar amaliyotda yashagan Yetti maqom tizimi shakllangan bo'lsa ajab emas. Har holda, o'sha davrlar yozma manbalarida yetti maqom nomi keltiriladi. Masalan, XVI asr oxiri – XVII asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan sozanda va musiqashunos Darvesh Ali Changiy o'zining "Musiqiy risola"sida avvalgi nufuzli maqomshunos olimlar Xoja Abdulqodir Marog'iy va Safiuddin Urmaviylar ma'lumotlariga tayanib, dastlab yetti maqom yetti payg'ambarga bog'lab yaratilganiga ishora qiluvchi rivoyatlar keltiriladi⁸:

Ushbu ma'lumotlarning barchasi rivoyat bo'lib, maqom san'atining bevosita tarixi sanalmaydi. Bu ko'proq musiqiy tizimlar lad-ohang manbalari qadimiy qatlamlarining shakllanish davri bo'lsa kerak. Dastlab yetti maqom xususida keltirilgan ma'lumotlar esa boshqa maqomlar bastakorlik ijodiyotining keyinchalik yaratilgan mahsullari bo'lgan, deya taxmin qilish imkonini beradi. Bu borada maqomshunos olim Is'hoq Rajabov shunday yozadi: "Maqomlar insonning musiqa haqidagi tushunchalari, musiqiy-estetik qarashlari barkamol bo'lgan, kishilarning ongi va saviyasi yuksalgan bir davrda yuzaga kelgan. Maqomlar tizimining shakllanishi jahon ilmu-fanining rivojlanishi bilan ham bog'liq"⁹.

Ma'lumki, XIII asrdan to XVII asrgacha bo'lgan davrda yozilgan musiqiy risolalarda asosan O'n ikki maqom tizimi xususida so'z boradi.

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, Shashmaqom turkumi XVIII asr o'rtalarida Buxoroda, saroy sharoitlarida uzil-kesil shakllangan. Shashmaqom shakllanishida O'n ikki maqom tizimi asos bo'lib xizmat qildi. Bu xususda rasman yozma ma'lumotlar mavjud bo'lmasa-da, har ikki manbani o'zaro solishtirib qaralsa, ulardagi aksariyat asarlar umumiy ekanligi ma'lum bo'ladi. "Bu esa O'n ikki maqom tizimidagi ayrim maqom va sho'balar olti maqomga birlashtirilib, yaxlit turkum holiga keltirilganidan darak beradi"¹⁰.

Darhaqiqat, "O'n ikki maqom" asosida Sharq xalqlari musiqa madaniyatida milliy va mahalliy maqom uslublari ko'zga ko'rina boshladi. Jumladan, XVIII asr o'rtalariga kelib O'rta Osiyoning ko'hna madaniy o'choqlaridan bo'lgan Buxoro shahri bastakorlar, hofiz va sozandalar ijodiy-ijroviy amaliyotida maqomlarning yangicha birlashuv shakli uzil-kesil yuzaga keladi. Oltita asosiy maqom muazzam maqom turkumini tashkil etgan holda lo'nda tarzidagi Shashmaqom nomiga ega bo'ldi. Ushbu turkum Buxoro maqomlari, Buxoro Shashmaqomi deb ham yuritiladi¹¹.

Ta'kidlash joizki, Shashmaqom turkumi bastakorlar yaratgan ijod mahsuli bo'lib, qadimdan bu ijodkorlar maqomlar va xalq musiqasi asosida mukammal asarlarni bunyod etganlar.

Shashmaqom atamasi fors-tojikcha "shash" va arabcha "maqom" so'zlarining birikmasidan hosil bo'lib, "Olti maqom" degan ma'noni anglatadi. Maqomdon olim Is'hoq Rajabov ta'riflaganidek, "Shashmaqom - olti turli lادلarga moslab olingan va ularga asoslangan kuy va ashulalar yig'indisidan iborat"¹². Ushbu mahobatli turkum tarkibiga quyidagi olti maqom kiradi:

⁸ Дарвиш Али Чанги. Трактат о музыке. Перевод Д.Рашидовой. Рукопись М (м) Р-28, №879, с.23-24

⁹ Rajabov I. Maqomlar. T., 2006, 50-b.

¹⁰ Rajabov I. Maqom asoslari. T., 2014., 7-b.

¹¹ Yunusov R. O'zbek maqomlari. T., 2018, 21-b.

¹² Rajabov I. Maqomlar. T., 2006, 150-b.

Buzruk – katta, ulug‘
Rost – to‘g‘ri, haqqoniy
Navo – go‘zal, ohangdor kuy
Dugoh – ikki parda
Segoh – uch parda
Iroq – arab mamlakatining nomi.

Shashmaqom o‘z ichiga 250 dan ziyod turli shaklli kuy va ashulalarni jamlagan makroturkumdir. Uning tarkibiga kiruvchi har bir maqomda 20 tadan 45 tagacha asarlar mavjud. Ushbu olti maqomning har biri “Mushkilot” deb nomlangan cholg‘u bo‘limi va “Nasr” nomli ashula bo‘limlaridan iborat. Bunda uning ijrochilik qirralari ham alohida ahamiyatga ega, sababi uni “...ustoz-shogird an‘anaviy maktabida tahsil ko‘rgan kasbiy cholg‘uchi va ashulachi-hofizlargina malakali ijro eta oladilar. Bu yuksak san‘atni o‘rganish istagida bo‘lganlar eng avvalo, shogirdlik maqomi odoblariga rioya qilishlari hamda o‘zlarining burch va vazifalarini yaxshi bilishlari talab etilgan”¹³.

Shashmaqom olti xil lad-pardaga asoslangan kuy va ashulalarni o‘zida jamlagan mahobatli turkumdir. Shunisi e‘tiborliki, Shashmaqomning lad negizi oltita bo‘lsa-da, uning tarkibida shu lادلarga yaqin lادلarda yaratilgan asarlar ham uchraydi.

Shunday qilib, Shashmaqom, maqomot janrining eng mukammal namunasi, bastakorlik san‘atining yuksak mahsuli va o‘rta asrlar musiqiy risolalarida keltirilgan asarlarning takomillashtirilgan shakli sifatida yuzaga keldi.

Maqomlarni ijro etish tartibiga ko‘ra, dastlab cholg‘u bo‘limi - Mushkilot asarlari chalinadi. Ushbu bo‘limda Tasnif, Tarje‘, Gardun, Muxammas, Saqil nomli mustaqil, **asosiy kuylar** uchraydi, va ular har bir maqomda keladi. Ma‘lumki, bu maqom kuylarining nomi bir xil bo‘lgani bois, asar qaysi maqomga tegishli bo‘lsa, unga o‘sha maqomning nomi qo‘shib aytiladi. Masalan, Tasnifi Buzruk, Tarjei Navo, Garduni Dugoh, Muxammasi Segoh, Saqili Iroq kabi. Mushkilot bo‘limida shuningdek, faqat muayyan maqomgagina tegishli bo‘lgan kuylar ham mavjud bo‘lib, ularni **noasosiy kuylar** deyish mumkin. Bular Navo maqomidagi Nag‘mai Orazi Navo, Dugoh maqomidagi Samoyi Dugoh, Peshravi Dugoh va Segoh maqomidagi Hafifi Segoh kuylaridir. Shashmaqom turkumi tarkibidagi mazkur cholg‘u kuylari o‘zining mukammalligi va murakkabligi bilan ajralib turadi. Maqom cholg‘u kuylarining yaratilishi xususida so‘z borar ekan, maqomshunos olim I.Rajabov shunday yozadi: “Maqomlardagi asosiy kuy mavzui ko‘pincha ritmik va melodik variatsiyalar vositasi bilan turli shakllarga tushiriladi (cholg‘u yo‘llarida kuy mavzui o‘zgaruvchandir). Ularga yangi-yangi melodik tuzilmalar kiritish bilan kuy yo‘li takomillashtiriladi, ularning ta’sir kuchi ortib boradi. Tasnif, Tarje‘, Gardun, Muxammas, Saqil yo‘llari birin-ketin ijro etilar ekan, ulardagi lad-asosi va kuy mavzuining yaqin bo‘lgani, kuy jumlarining rang-barang, ohangdorligi va yoqimlilik hamda doyra usullarining turli-tumanligi bilan butunlay sezilmay qoladi; bunda ijodkor bastakorlarning juda ham ustalik bilan yaratgan maqom yo‘llarining originalligi yaqqol ko‘zga tashlanadi”¹⁴.

Shuni ham ta’kidlash joizki, Shashmaqom tarkibida uchraydigan asarlarning aksariyatini nomi – bu maqom doyra usullarining nomidir. Jumladan, cholg‘u

¹³ Ibrohimov O. Maqom asoslari.T., 2018, 37-b.

¹⁴ Rajabov I. Maqomlar. T., 2006, 165-b.

bo'limidagi Tasnif, Tarje', Gardun, Muxammas va Saqil nomlari bunga yaqqol misoldir. Ya'ni, nomlanishi bir xil bu maqom cholg'u kuylarining lad-pardasi, kuy mavzulari o'zgacha, mustaqil bo'lsa-da, ammo vazn-usuli bir xildir. Shu sabab, asar nomi usul nomidan olingani ma'lum bo'ladi.

Maqomlarning muhim shakllantiruvchi vositalaridan biri usuldir. "Zero usul – nainki jo'r bo'luvchi doira zarblarining shakli, balki kuy rivojining muvaqqat asosini belgilovchi eng muhim omillardan hisoblangan. Maqom tarkibiy qismlarining nomlanishida ham bir xildagi shakliy atamalar qismning vazn-usul birligidan dalolat berishi ma'lum. Zero, maqom usullari o'zining shaklan boyligi, kuy rivojlanishi jarayonida uning vazni ila murakkab munosabatlarda bo'lishi bilan ajralib turadi"¹⁵.

Maqom cholg'u kuylarini o'rganar ekanmiz, yana bir muhim jihat – asarlarning shakl masalasidir. "Shashmaqom cholg'u yo'llarining hammasi uchun yana bir xos narsa shuki, ular asosan "xona" va "bozgo'y" deb atalgan kuy bo'laklaridan tuzilgan. Ular bir yoki bir necha kuy jumlasidan tashkil topishi mumkin"¹⁶. Demak, cholg'u yo'llarining shakl-shamoyili "xona" va "bozgo'y" deb nomlangan kuy tuzilmalaridan iborat bo'ladi. Bunda "xona" (lug'aviy jihatdan uy, xona) muntazam o'zgarib, rivojlanib boruvchi qism bo'lsa, "bozgo'y" (lug'aviy ma'nosi "takror", "qaytish") esa "xona"ning rivojlanuvchi harakatini tasdiqlagan holda, asar oxiriga qadar o'z qiyofasini o'zgartirmay, barqaror saqlovchi qismdir. Xona-bozgo'y qismlari o'zaro almashinib keladi (Tasnifi Buzruk). Ba'zan bir necha xonadan so'ng bozgo'y kelsa (Tasnifi Navo), ba'zida asar bozgo'ydan boshlanadi (Tasnifi Dugoh). Ta'kidlash joizki, cholg'u yo'llarining rivojlanishida peshrav tuzilmasi (lug'aviy ma'nosi "oldinda boruvchi", musiqiy ma'nosi "oldinga intilib harakatlanuvchi") muhim ahamiyat kasb etadi. Asarning kuy harakatida u muntazam ravishda yangi tovush balandliklarini zabt etib, dastlabki tayanch tovushga qaytib kelishni ta'minlaydi. Shashmaqom turkumining Mushkilot bo'limi asarlariga ta'rif berar ekan, ustoz olim R.Yunusov shunday yozadi: "Shashmaqom cholg'u yo'llarining tuzilishi murakkab bo'lsa-da, o'zining ravon ohangdorligi va rang-barangligi bilan shu maqom kuy mavzulari bilan bevosita bog'liqdir. Bu asarlar teran falsafiy va turfa lirik kayfiyatlarni ifodalaydi. Tinglovchilardan esa muayyan bilim va eshitish ko'nikmalariga ega bo'lishni talab etadi, albatta"¹⁷.

Maqom cholg'u kuylari ikki ko'rinishda ijro etiladi – yakka va ansambl tarzida. Bunda yetakchi cholg'u tanbur bo'lib, u sozandalar tomonidan keng qo'llaniladi. Ikkinchi asosiy cholg'u esa tabiiyki, doyradir, u asar ijrosining vazn-usul jihatiga mas'ul bo'lib, o'ziga xos dirijyorlik vazifasini o'taydi. Ansambl tarkibidagi dutor, rubob, nay, qo'shnay, g'ijjak, sato, chang, qonun, ud kabi cholg'ular asar ijrosining tembr jihatdan yanada boyishiga hissa qo'shadi.

Shashmaqom mushkilot qismlarining tuzilishi

Tasniflar

Ular Shashmaqomda quydagicha nomlanadi: Tasnifi Buzruk, Tasnifi Rost, Tasnifi Navo, Tasnifi Dugoh, Tasnifi Segoh va Tasnifi Iroq.

¹⁵ Oyxo'jaeva Sh. Maqom taronalari. T., 2011, 96-b.

¹⁶ Rajabov I. Maqomlar. T., 2006, 166-b.

¹⁷ Yunusov R. O'zbek maqomlari. T., 2018, 32-b.

“Tasnif” so‘zining ma’nosi sinflashtirish, tartiblash ya’ni joy joyiga qo‘yish demakdir. Bir mavzuni turli pardalarda tartib bilan ijro etiladigan kuy yo‘li aynan Tasniflarga xosdir.

Tarje’lar

Maqomlarda bir hil nom bilan atalgan kuy yo‘llarining parda asosi va kuy mavzulari boshqa-boshqa bo‘lishiga qaramay doira usuli bir xil bo‘lishi mumkin. Demak ularning tasnif, tarje’, gardun, muxammas kabi nomlar bilan atalishiga sabab dastlab ularda bo‘lgan doira usullaridir. Shashmaqom cholg‘u yo‘llarining hammasi uchun yana bir asosli tomoni shundaki, ular xona va bozgo‘y deb atalgan kuy bo‘laklaridan tuzilgan. Ular bir yoki bir nechta kuy jumlasidan tashkil topishi mumkin. Xona “uy”, “xona” ma’nosida, ya’ni kuyni tashkil etgan tovushlar va uning boshqa alomatlari joylashtirilgan xona ma’nosini bildiradi.

Shashmaqomning cholg‘u yo‘lidagi bu asarlar Tarje’ Buzruk, Tarje’ Navo, Tarje’ Dugoh, Tarje’ Segoh, Tarje’ Iroq kabi taqsimlanadi. Tarje’larning doira usuli tasniflardagidek, ya’ni tasnif doira usuli deyiladi. Maqomot tarihidan bizga yaxshi ma’lumki, Rost maqomida tarje’ qismi uchramaydi.

“Tarje’” arabcha so‘z bo‘lib, qaytarish, takrorlash demakdir. Kuy bir kichik mavzuning turli balandliklarda takrorlanishi va turli pardalarda ijro etilgan shaklda musiqiy almashinuvlar natijasida tuziladi. Navo maqomidagi Tarje’ning uchinchi xonasida peshravsifat mavzular ham uchraydi. Ya’ni bir kuyni turli pardalarda ijro etilishidir.

Maqomlar to‘la va yaxlit ijro etiladigan bo‘lsa dastlab ularning cholg‘u yo‘llari ijro etilishi lozim. So‘ngra ashula bo‘limining sho‘balariga o‘tiladi. Shunday bo‘lishi bilan birga cholg‘u bo‘limidagi kuy yo‘llarining har biri mustaqil cholg‘u qismlari xisoblanadi va o‘zlari mansub bo‘lgan maqomlar nomi bilan qo‘shib aytiladi. Masalan, Tasnifi buzruk, Tarje’ Rost, Saqili navo, Samoi Dugoh va xokazo.

Gardunlar

Maqom cholg‘u qismida Gardun ham o‘z nomi bilan “gardun” ya’ni “aylana” tarzda ijro etilishi lozim bo‘lgan asarlardir. Ya’ni bir hil kuy mavzusi har hil shaklda takrorlanaveradi. Gardunlarda kuy xarakati va doira usuli o‘zgarmaydi, ya’ni deyarli barchasida ular bir hil. “Gardun” osmon gardishi, aylana, taqdir ma’nolarini beradi. Musiqada esa gardun ma’lum bir doira usulining hamda shu usul jo‘rligida muayyan parda tuzuk ya’ni o‘z maqomiga muvofiq ravishda ijro etiladigan kuyning nomidir. O‘tmishda XIII-XVII asrlarda yozilgan musiqiy risolalarda Garduniya, Gardoniya nomlari bilan atalgan maqom sho‘balari xaqida ko‘plab ma’lumotlar bor. Ularning bizgacha yetib kelgan shakli Shashmaqomdagi Gardun yo‘lidir. Gardun yo‘llarida bozgo‘y xamma xonalardan keyin kelavermaydi, balki u ikki-uch xonadan so‘ng takrorlanadi. Kuy yo‘lidagi yuqoriga sakrashlar, asta sekin boshlang‘ich pardaga tushib kelishi bilan yakunlanadi. Gardun yo‘llari unchalik katta xajmda bo‘lmasada kuy tuzilishi xarakati nuqtai nazaridan tasnif yoki tarje’larga ko‘ra ancha murakkabroqdir. Gardun cholg‘u yo‘llari Iroqdan boshqa hamma maqomlarda mavjud. Ular Garduni buzruk, Garduni Rost, Garduni Navo, Garduni Dugoh, Garduni Segoh nomlari bilan yuritiladi.

Muxammaslar

Shashmaqom mushkilot qismida muxammaslar o'z o'rniga ega. Muxammas beshlik degan va, uning doyra usuli 16 taktdan iborat. Muxammaslarda xam tasnif tarje' kabi kuy xona va bozgo'ylerden iborat. Ba'zi maqomlarda muxammaslar 2 ta, ba'zilarida 3 ta, xattoki Dugox maqomida 4 ta muxammas bor. Muxammaslar maqomning nomi bilan, ba'zilar bastakor nomi bilan yuritiladi.

Saqillar

Hali hanuz tadqiqotchi olimlarning Saqil borasidagi tortishuvlari ohiriga yetgani yo'q. Lekin bu borada Isxoq Rajabovning "Maqomlar masalasiga doir" kitobida: "Saqil - og'ir, vazmin doira usulida ijro etiladigan maqomlarning cholg'u qismi", deyilgan. Aslida saqillar Shashmaqom cholg'u bo'limidagi 24 taktilik doira usuli va kuy mavzulariga ega bo'lgan yirik bir bo'lakdir. Bizning nazarimizda Isxoq Rajabovning xulosalari juda to'g'ri, qisqa va lo'nda aytilgan. Saqil so'zining lug'aviy ma'nosi ham "og'ir, vazmin" deganidir. Maqom doirasida "Saqil" og'ir, bosiq kuyni anglatadi. "Vazmin" so'zining qo'shilishi esa uni yanada vazminroq va salobatliroq qilib ko'rsatadi. Xaqiqatdan ham bu kuy Saqillarning eng Vazmini bo'lish bilan birga, kuy shakli jixatdan ham yirik asardir. Saqili Vazminning asosiy jixati shundaki, u inson kayfiyatiga ulug'likni buyuklikni baxsh etadi. Umuman musiqa tarixida bunday kuy va ashulalar juda kam uchraydi.

Shashmaqom cholg'u bo'limidagi boshqa qismlar

Nag'mai Orazi Navo

Shashmaqomning cholg'u bo'limlarida bir hil nomlanishdagi qismlar talaygina. Ulardan tashqari ba'zi maqomlarning o'zigagina xos bo'lgan boshqa nomlar bilan ataluvchi cholg'u yo'llari ham bor. Masalan Navoda Nag'mai Orazdir. "Nag'ma" so'zi kuy, ohang, musiqa ma'nolarini bersa, "Oraz" so'zi chiroyli yuz, go'zal chehra ma'nolarini anglatadi. Ya'ni Nag'mai Oraz "ko'rinishi go'zal" musiqa demakdir. Nag'mai Oraz Tarje' Navoga asoslangan bo'lib, uning ma'lum bir musiqiy ko'rinishidir. Xatto uning doira usuli ham Nag'mai Orazda saqlanib qolgan. "Nag'mai Oraz" Navo maqomida boshqa cholg'u qismlar kabi surnay yo'llar sifatida ham mashxur bo'lgan.

Peshravi Dugoh

Peshrav ilgariga ya'ni yuqoriga intiluvchi musiqiy mavzularning ifodasi bo'lib, ular bir xonaning kuy xarakatida turli balandliklarda bir necha bor takrorlanadi va bozgo'ygga kelib qo'shiladi. Shu bilan birga turli balandliklarda takrorlanuvchi musiqiy mavzular sifatida o'zining kuchli musiqiy ta'sirchanligiga ega. Ular kuyning rivojlanishida juda katta ahamiyatga ega. Shashmaqom ichida Peshrav faqatgina Dugoh maqomida uchraydi.

Samoi Dugoh

Bu kuyning tuzilishi ham Peshravlarga yaqin bo'lib, uning doira usuli sakkiz taktili bozgo'y va xonalar xajmiga tengdir. Samoi Dugoh cholg'u asboblarda va surnayda maqom turkumlaridan ajratilgan holda juda ko'p ijro etib kelingan mashxur

kuylardandir. "Samo" so'zining ma'nosi osmon, falak demakdir. Samoi Dugohning nomlanishidan uning samoviy ya'ni osmoniy hayototga boy Dugoh pardalaridagi betakror asar ekanligini tushunsa bo'ladi.

Hafifi Segoh

Shashmaqom cholg'u bo'limida shunday kuylar uchraydiki, ular tasnif, tarje', gardun, muhammas, saqil nomlari bilan yuritilmaydi. Bunday kuylardan Navo maqomida Nag'mai Oraz, Dugohda Peshravi Dugoh, Segohda esa Hafifi Segoh deyiladi. Hafifi Segohning doira usuli Tarje'larnikidek bo'lib, xonalar va bozgo'ylar xajmi tengdir. Ya'ni sakkiz xona va sakkiz bozgo'ydin iborat. "Hafif" so'zi yengil ma'nosida bo'lib, doira usuli va aruz vaznida ma'lum turg'un o'lchovining ifodasidir. Demak, Hafifi Segoh shu nomli doira usulidagi kuy yo'llaridandir. Umuman olganda Shashmaqom cholg'u yo'llari o'ziga hos ohangdorlik va o'ta kuchli hissiyotga ega.

Shashmaqom cholg'u yo'llaridan tashqari ansambl ijrosida juda ko'plab o'zbek xalq kuylarini, bastakorlar yaratgan asarlarni ijro qilish mumkin. Bu borada ustozlarimiz tomonidan ijro etilgan bir qancha kuylarni misol qilishimiz mumkin. Guluzorim, Eshvoy, Mirzadavlat, Sayqal, Chapandozi Bayot, Ufori Bayot, Nasrullovi, Navro'zi Ajam, Ajam taronalari, Kurd, Jazoir, Mushkiloti Dugoh, Paxta, O'yin Bayoti, Nasri Segoh, Segoh, Miskin, Qalandar, Dildor, Zavqim kelur, Kuygay, Gulbaxor va Tanavor, Yovvoyi Tanavor, Ey Sabo, Roxat va yana bir necha kuylar shular jumlasidandir.



Xorazm maqomlari

Xorazm maqomlari muayyan tizimdagi turkum shaklida XIX asrning birinchi yarmida qaror topgan bo'lib, bu turkum Buxoro maqomlari singari asosan Olti maqomdan iborat:

1. "Rost" maqomi (yoki Maqomi Rost);

2. "Buzruk" maqomi (Maqomi Buzruk);
3. "Navo" maqomi (Maqomi Navo);
4. "Dugoh" maqomi (Maqomi Dugoh);
5. "Segoh" maqomi (Maqomi Segoh);
6. "Iroq" maqomi (Maqomi Iroq).

Yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, Xorazm maqomlarining uzil-kesil qaror topishida Buxoro maqomchilik an'analari katta ta'sir ko'rsatgan. Bu o'rinda atoqli musiqachi Niyozjon Xo'janing xizmatlari alohida ko'rsatib o'tiladi. Shunga ko'ra, Niyozjon Xo'ja XIX asr boshlarida Buxoroga kelganligi va Shashmaqomni maxsus o'rganib, so'ngra bu san'atni Xorazmda tarqatganligi aytiladi. Ayni vaqtda maqomlar Xorazm sharoitiga moslanib, mahalliy badiiy an'alar bilan bog'liq jihatlarga ega bo'lganligi ham ta'kidlanadi. Biroq bu kabi ma'lumotlar Buxoro Shashmaqomi Xorazmga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirilganligini anglatmaydi, balki Xorazmda qadimdan mavjud maqomchilik an'analari namunalarini yaxlit bir tizimga tushirishda Shashmaqom turkumi andoza sifatida olinganligiga ishora etadi.

XIX asrda yashab ijod etgan shoir va musiqashunos olim **Pahlavon Niyoz Muhammad** (taxallusi Komil Xorazmiy, 1825-1897) o'zi kashf etgan "Tanbur chizig'I" nomli o'ziga xos "nota yozuvi" vositasida Xorazm maqomlarini yozib olish tajribasini boshlab bergan edi. Bu ishni uning o'g'li – Muhammad Rasul Mirzaboshi davom ettirgan. O'ng tomondan chapga qarab o'qilgan mazkur «nota yozuvi»da tanbur pardalariga oid 18 ta muvoziy chiziqlar bo'lgan va bunda sadolanishi (bosilishi) lozim bo'lgan pardalar nuqtalar vositasida belgilangan.

Xorazm maqomlari tuzilishi jihatidan Buxoro maqomiga aksariyat o'xshash hamda o'zgacha holatlarni namoyon etadi. Xususan, bu maqomlarning cholg'u-kuy yo'llaridan tashkil topgan bo'limi Shashmaqomdagi kabi "Mushkilot" deb emas, balki "chertim yo'li" (yoki "Mansur") kabi umumiy nomlar bilan yuritiladi. Shuningdek, cholg'u bo'limi - chertim yo'li tarkibida bizga Olti maqomdan ma'lum bo'lgan "Tarje", "Gardun", "Muxammas" va "Sa qil" nomli kuylar bo'lgani holda, biroq "Tasnif" atamasi uchramaydi va uning o'rnida har bir maqomning nomi (masalan, "Maqomi Rost", "Maqomi Buzruk" va h.k.) yoki "Tani maqom" iborasi qo'llaniladi.

Doira usullarining ketma-ketligida Shashmaqomda namoyon bo'lgan "oddiydan murakkabga" tamoyili Xorazm maqomlari chertim yo'lida o'zgacha ko'rinish kasb etadi. Masalan, Tani maqom (boshlang'ich)da qo'llangan zarb – usuli oddiy bo'lib, uni maqomdon ustozlar "gup, taq" (yoki "gup, ist, taq, ist") tarzida ifoda etadilar.

Chertim yo'lining keyingi qismlarida shu asosda tobora murakkab ko'rinishli usullar ("Tarje", "Muxammas", "Sa qil" va b.) unib o'sadi. Shu jumladan, o'rta bo'g'inda «Peshrav» nomli qismlarning muqim tus olgani va bu qismlarda "Zarb ul-fath" nomli usulning kelishi ham o'zgacha holatdir.

Bundan tashqari, Shashmaqom cholg'u bo'limlari "Sa qil" nomli kuylar bilan yakunlangani holda, Xorazm maqomlarining chertim yo'llari "Ufar" nomli kuylar bilan poyoniga yetadi. Bu kabi o'zaro o'xshash va farqli jihatlarni yaxshi tasavvur etish maqsadida Shashmaqom va Xorazm maqomlarining "Rost" turkumidagi cholg'u kuylarni bir-biriga qiyoslab ko'rish mumkin.

Xorazm "Rost" maqomi Buxoro "Rost" maqomi **Chertim yo'li: Mushkilot bo'limi:**

1. *Maqomi Rost. 1. Tasnifi Rost.*
2. *Tarjei Rost. 2. Garduni Rost.*
3. *Peshravi Gardun. 3. Muxammasi Rost.*
4. *Muxammas I. 4. Muxammasi Ushshoq.*
5. *Muxammas II. 5. Muxammasi Panjgoh.*
6. *Muxammasi Ushshoq. 6. Saqili Vazmin.*
7. *Saqili Vazmin. 7. Saqili Rak-rak.*
8. *Ufar.*

Chertim yo'li kuylarining ichki shakl-tuzilishlarida Shashmaqomning "Mushkilot" kuylaridan ma'lum bo'lgan "xona-bozgo'y" nisbatlari namoyon bo'ladi.

Xorazm maqomlarining cholg'u kuylari ijro etilganda tanbur va doira sozlari muhim o'rin tutadi. Tanburda maqomning kuyi, doirada esa usul yo'li chertiladi. Shuningdek, chertim yo'llarida ikki tanbur, bir g'ijjak, bir bulamon va doira cholg'ularidan iborat an'anaviy dasta ham namoyon bo'ladi.

Xorazm maqomlarining ashula bo'limi "aytim yo'li" (yoki "Manzum") deb ataladi va uning tarkibidagi "Tani Maqom", "Talqin", "Nasr", "Suvora", "Naqsh" va "Faryod" kabi qismlar Navoiy, Fuzuliy, Mashrab, Ogahiy, Munis, Avaz O'tar kabi donishmand shoirlarning aruz vaznli nazmiy ijodlari asosida "o'qiladi". Aytim yo'lining ilk qismlarida "Saraxbor" atamasi umuman uchramaydi, balki bu o'rinda (chertim yo'lida bo'lgani singari), maqomning nomi ("Maqomi Rost", "Maqomi Buzruk" kabi) yoki "Tani Maqom" iborasi ishlatiladi. Mazkur qismlarda qo'llangan doira usuli esa, chertim yo'li boshlang'ichida kelgan "gup, ist, tak, ist" kabi ko'rinishda hozir bo'ladi. Manzumlarning o'rta bo'g'inlaridan o'rin olgan Talqin va Nasrlar Shashmaqomda shu nomlarda kelgan sho'balar kabi mukammal ishlangan aytim yo'llaridir. Ularda qo'llangan doira usullari bir oz o'zgacha bo'lsa-da, Shashmaqomdagi ko'rinishlariga asosan mos keladi.

Xorazm maqomlarining aytim yo'llarida Taronalar ham qo'llanilib, bu o'rinda, ko'pincha "Suvora", "Naqsh", "Faryod" nomli ashulalar ishlatiladi. Biroq, Shashmaqomdagi Taronalardan farqli o'laroq, mazkur ashulalar anchayin rivojlanganligi, avj tuzilmalari qo'shib ishlanganligi bilan ajralib turadi. Aytim yo'llari "Ufar" nomli qismlar bilan yakunlanadi. Xullas, Xorazm maqomlari aytim yo'llarini Shashmaqomning "Nasr" bo'limlari bilan qiyoslaganda ko'plab o'xshash va o'zgacha holatlar namoyon bo'ladi. Buni har ikkala turkum "Navo" maqomlariga oid aytim yo'llarining quyidagi qiyosida ham ko'rish mumkin: Xorazm "Navo" maqomi Buxoro "Navo" maqomi **Aytim yo'li Nasr bo'limi**

1. *Maqomi Navo. 1. Saraxbori Navo.*
2. *Tarona. 2. Tarona I-II.*
3. *Suvora. 3. Talqini Bayot.*
4. *Talqin. 4. Tarona.*
5. *Faryod. 5. Nasri Bayot.*
6. *Naqsh. 6. Tarona I-II*
7. *Oraz. 7. Orazi Navo»*
8. *Ufar. 8. Tarona I-III.*
9. *Husayniy Navo.*
10. *Ufari Bayot.*

Xorazm va Buxoro maqomlarini qiyoslashda davom etib, yana shuni aytish mumkinki, Xorazm "Iroq" maqomida "aytim yo'li"ga doir ashula namunalari umuman uchramaydi. (Bu namunalar bizning davrgacha yetib kelmagan.) Demak, Iroq maqomi "chertim yo'li"dan iborat, xolos. Shuningdek, Xorazm maqomlarida Shashmaqomdan ma'lum "Savt", "Mo'g'ulcha" va ularning shoxobchalari kabi ishlangan ikkinchi guruh ashula turkumlari muqim tarzda qaror topmagan.



Farg'ona-Toshkent maqomlari

O'zbekistonda maqomchilik san'atining yana bir asosiy turkumini tashkil etadi. Farg'ona vodiysida XIX-XX asrlarda keng tarqalgan turkumli (Farg'ona-Toshkent maqomlari) va turkumsiz (Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari) ashula va cholg'u maqom yo'llari bo'lib, ular vohta mumtoz musiqa merosida yetakchi o'rinlarni egallab, Shashmaqom shu'balari negizida va mahalliy ijrochilik an'analari bilan sug'orilgan. Farg'ona-Toshkent maqomlari - Toshkent va Farg'ona vodiysi musiqa madaniyatida yuzaga kelgan maqom namunalarining umumlashma nomi.

Shashmaqom va Xorazm maqomlari turkumlaridan farqli o'laroq, katta va kichik turkumga ega bo'lgan Farg'ona-Toshkent maqom ashula va cholg'u yo'llari Shashmaqom tarkibidagi bir qator sho'ba (Saraxbor, Savt, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar)larga yaqindir (ularning ohangi, kuy harakati, shakli, usullariga o'xshash). Ular 3, 5 va 7 qismli turkumlarni tashkil etadi; har biri ma'lum shoxobchalarga ega hamda sonlar vositasi bilan bir-biridan ajratiladi.

Farg'ona-Toshkent maqom cholg'u turkumlari – uch qismli "Mushkiloti Dugoh", "Xojiniyoz", "Ajam taronalari"; besh qismli "Chorgoh", "Nasrullo", "Munojot"; yetti qismli "Miskin". Farg'ona-Toshkent maqom ashula turkumlari - uch qismli "Nasrulloiy"; besh qismli "Chorgoh", "Bayot", "Bayoti Sheroziy", "Gulyor-Shahnoz"; yetti qismli "Dugoh-Husayniy"lardan iborat. Cholg'u yo'llari yakkasoz

yoki cholg'u ansambli ijrosida, ashula yo'llari esa xonanda va cholg'u ansambli jo'rnavozligida talqin etiladi. Ayrim hollarda tarkibiy qismlarning maxsus nomlari ham uchraydi, jumladan, "Gulyor- Shahnoz" maqomi turkumida - 1 qism "Gulyor", 2 – "Shahnoz", 3 – "Chapandozi Gulyor", 4 – "Ushshoq", 5 – "Gulyor ufari"; "Miskin" turkumining 3 qismi "Adoiy", 4 qismi "Asiriy"; yoki "Nasrullo" turkumining 2 qismi "Chapandoz", 3 – "Qashqarcha", 4 – "Tarona", 5 – "Ufar" deb nomlanadi.

Farg'ona-Toshkent maqom turkumlaridan tashqari alohida maqom cholg'u va maqom ashula yo'llari yetuk sozanda va bastakorlar tomonidan Farg'ona vodiysiga xos ashula, katta ashula va cholg'u yo'llari asosida Shashmaqom sho'ba va shohobchalari mutanosibligida yuzaga kelgan. "Cho'li Irog", "Toshkent Irog'i", "Qo'qon Irog'i", "Yovvoi Chorgoh", "Yovvoi Ushshoq", "Yovvoi Tanovar", "Segoh", "Samarqand yoki Hoji Abdulaziz Ushshoqi", "Toshkent yoki Mulla To'ychi Ushshoqi", "Xo'jand yoki Sodirxon hofiz Ushshoqi" kabilar. Bulardan tashqari Farg'ona-Toshkent maqom surnay yo'llari ham tashkil topgan, masalan, "Navo", "Surnay Dugohi", "Surnay Iroqi", "Yakkaxonlik", "Begi Sulton". Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari nafaqat shahar madaniyati yoki xon saroylarida, balki xalq hayoti bilan bog'liq turli vaziyat va sharoitlar (to'y marosimi va bazmi, dorbozlar o'yini, sayil va bayramlar)da ham ijro etilgan.

Farg'ona-Toshkent maqomlari Shashmaqom ashula bo'limining sho'balarining ohang, usul va shakllari tarkibida shakllangan va ashula yo'lining harakati asosida rivoj topgan (she'riy matnlari sifatida mumtoz shoirlar – Sakkokiy, Navoiy, Bobur, Uvaysiy, Nodira, Zebunniso, Amiriy, Muqimiy, Furqat va boshqa shoirlarning g'azallari qo'llangan). Bayot, Chorgoh va Dugoh-Xusayniy maqomlari Shashmaqomning shu nomlar bilan atalgan sho'balari (Navo va Dugoh maqomlari), Shahnoz-Gulyor esa turli maqom sho'balari (Segox va Rost maqomlari) asosida yuzaga kelgan. Ushbu maqom o'z tuzilishi jihatidan boshqa turkumlardan tubdan farq qiladi. Uning shohobchalari mazmunan va usluban ancha murakkab, original ashula maqom yo'llari bo'lib, jozibali, yoqimli ham ta'sirchan ohanglarga boy. XX asrda o'zbek bastakorlari tomonidan maqom yo'llarining yangi variantlari yuzaga kelgan, jumladan, Chorgoh VI va Dugoh-Husayniy VIII Yunus Rajabiy ijodiga mansub; besh qismli Nasrulloiy (ashula va cholg'u) turkumi, Miskin cholg'u turkumi asosida yetti qismli Miskin ashula turkumi (Muqimiy g'azallari), Ushshoq asosida Ushshoq ashula turkumi – Qadimiy Ushshoq, Zikri Ushshoq, Umrzoq Polvon Ushshoqi, Fattohxon Ushshoqi kabi ashula yo'llaridan iborat taniqli xonanda va bastakor Fattohxon Mamadaliev tomonidan ijod va talqin etilgan. Xalq orasida "Rasulqori Ushshoqi", "Orifxon Ushshoqi" kabi asarlar ham keng tarqalgan.

Farg'ona-Toshkent maqomlari va maqom yo'llari V.Uspenskiy, V.Belyaev, Yunus Rajabiy tomonlaridan yozib olingan va turli yillarida nashr etilgan (O'zbek xalq qo'shiqlari. 1-2 kitoblar. Toshkent, 1939; O'zbek xalq musiqasi. 1-4 jildlari. Toshkent, 1955-1958; O'zbek maqomlari. Toshkent, 2007). Nafaqat an'anaviy «ustoz-shogird» maktablari, balki yangi musiqa ta'limi tizimi (san'at kollejlari va konservatoriya hamda musiqa maktablari) orqali o'zlashtirilmogda. Farg'ona-Toshkent maqomlarini targ'ib etishda Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Sodirxon hofiz Bobosharifov, Yunus Rajabiy, Abduqodir Ismoilov, Ahmadjon Umrzoqov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Rasulqori Mamadaliev, Shojalil va Shorahim

Shoumarovlar, Shoqosim, Shoolim va Shoakbar Shojalilovlar, Orifxon Hotamov, Imomjon Ikromov, Orif Alimaxsumov, Ortiqho'ja Imomxo'jaev, Xalima Nosirova, Saodat Qobulova, Tavakkal Qodirov, Kamoliddin Raximov, Ochilxon Otaxonov, Turg'un Alimatov va boshqalar maqom yo'llarini yanada boyitib, yoshlar orasida targ'ib etishda katta hissa qo'shganlar. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari Xalqaro va Respublika miqyosidagi yosh maqom ijrochilari va maqom ansambllari tanlovlari dasturidan o'rin olgan.



Yunus Rajabiy nomli maqom ansambli



O'zbekiston davlat konservatoriyasi "An'anaviy ijrochilik kafedrası"
"Faxriddin Sodiqov" nomli sozandalar ansambli.


MUSHKILOTI DUGOH

Abdurahim Hamidov rahbarligidagi talabalar ansambli ijrosidan yozib olingan




Farg'ona - Toshkent
maqom cholg'u yo'llaridan
Ilyos Arabov ansamblga moslashtirgan


$\text{♩} = 88$



9



17




25 Tanbur, dutor




33


Ansambli




41



49









57 Qo'shnay












65 Qo'shnay

Ansambli







TALQINCHAI MUSHKULOTI





DUGOH

Abdurahim Hamidov rahbarligidagi "Talaba sozandalar" ansambli ijrosidan yozib olingan




Farg'ona-Toshkent
maqom cholg'u yo'llaridan
Ilyos Arabov ansamblga moslashtirgan


♩ = 88



107




112




117



123



129



135



141




145












149



153





UFARI MUSHKULOTI DUGOH I

Abdurahim Hamidov rahbarligidagi "Talaba sozandalar" ansambli ijrosidan yozib olingan



Farg'ona - Toshkent
maqom cholg'u yo'llaridan
Ilyos Arabov ansamblga moslashtirgan

$\text{♩} = 80$

4

7










11

15

19

23

27



1.2 Asarning usulini tahlil qilib o'rganish

O'zbek milliy musiqasida usul tushunchasi juda muhim bo'lib, u kuy va ashulalarning ritmik asosini belgilaydi. Usul – bu musiqaning “nafas olishi”, uning harakati va ohangdorligini tartibga soluvchi asosiy qoidalar majmuasi. O'zbek xalq musiqasi va maqom san'atida har bir kuy yoki ashulaning o'ziga xos usuli bo'lib, u ijrochilarning harakatini boshqaradi va tinglovchiga aniq bir kayfiyat yetkazadi.

Shashmaqomda Saqil, Gardun, Ufor kabi, xalq musiqamizda esa Tanovar kabi ko'plab usullar mavjud. Masalan, Tanovar usuli raqslarga xos bo'lib, kuyga ritmik ravonlik bag'ishlaydi. Saqil usuli esa ko'proq lirik ohanglarda uchrab, sokin, chuqur ifodali kuylar bilan uyg'unlashadi. Gardun va Ufor kabi murakkab usullar esa asosan maqomlarda ishlatiladi va kuylarning boy ritmik tuzilishini hosil qiladi.

Talabalar uchun usulni o'rganish juda muhim, chunki u ijro jarayonida musiqa ohangining qanday harakatlanishini tushunishga yordam beradi. Musiqani yaxshi ijro etish uchun har bir usulni chuqur o'rganish, uning o'lchovlarini his qilish va kuy bilan qanday bog'lanishini tushunish zarur. Usulni o'rganish orqali ijrochi kuyning ichki dinamikasini his qila oladi va musiqa ifodaliligini oshira oladi.

O'zbek musiqasining turli hududlarida usullar o'ziga xos tarzda rivojlangan. Masalan, Buxoro va Xorazm maqomlarida usullar murakkab va og'irroq bo'lsa, Farg'ona-Toshkent maktabida ular biroz yengilroq va ravonroq ijro etiladi. Bu esa milliy musiqamizning boyligini va har bir mintaqada o'ziga xos uslub shakllanganini ko'rsatadi.

Usulni o'rganishda kuylarni tinglash, cholg'ularda turli usullarni mashq qilish va tajribali ustozlardan o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat nazariy bilimlarni oshiradi, balki amaliy jihatdan ham ijrochilik mahoratini rivojlantirishga yordam beradi. Shu sababli, milliy musiqamizni chuqur anglash va uni kelajak avlodlarga yetkazish uchun usullarni o'rganish va o'zlashtirish har bir musiqachining muhim vazifasidir.

Usullarni o'rganish jarayonida kuylarning ritmik tuzilishini tushunish bilan birga, ularning ijrochilik xususiyatlariga ham e'tibor berish kerak. Masalan, **maqom san'atida** usullar kuyning ifoda vositalaridan biri bo'lib, uning ohangdorligi va harakatini belgilaydi. Shu sababli, maqom yo'llarini o'rganish jarayonida usullarni to'g'ri tushunish va ularni ijroda aniq qo'llay bilish talab etiladi.

Amaliy mashqlar usulni o'zlashtirishda juda muhim. Har bir cholg'u ijrochisi yoki xonanda o'z repertuarida mavjud kuy va ashulalarning usullarini yaxshi bilishi, ularning o'ziga xos temp va ritmik o'zgarishlarini tushunishi lozim. Masalan, **Tanovar** usulida ijro paytida kuyga tabiiy ravonlik berish zarur bo'lsa, **Ufor** kabi murakkab usullarda aniq va izchil zarb berish muhimdir. Bunday mashqlar ijrochilarning ritm sezgisini rivojlantirishga yordam beradi va ularning ijrosini yanada ta'sirchan qiladi.

Usullarni o'rganishda **tinglash va taqqoslash** ham foydali bo'lib, turli ijrochilarning bir xil usuldagi kuylarni qanday ijro etishini kuzatish kerak. Ba'zi holatlarda, bir xil kuy turli hududlarda turlicha usul bilan ijro etilishi mumkin. Bu esa milliy musiqamizning boyligi va xilma-xilligini ko'rsatadi. Shuning uchun talabalar turli hududlarga xos musiqiy uslublarni ham o'rganib, ularni amaliyotda qo'llashni mashq qilishlari lozim.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida usullarni chuqurroq o'rganish ham mumkin. Bugungi kunda maqom va xalq kuylarining turli ijrolari yozib olinib, ularning ritmik va strukturaviy tahlili qilinmoqda. O'zbekiston milliy konservatoriyasi va boshqa musiqa ta'lim muassasalarida maqom usullarini chuqur o'rganish bo'yicha turli ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar talabalar va yosh musiqachilar uchun juda foydali bo'lib, ular o'zbek milliy musiqa ijrochiligini yanada chuqurroq o'zlashtirishlari uchun xizmat qiladi.

Usullarni yaxshi o'rganish va tushunish har bir musiqachining ijro mahoratini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Usullarni o'zlashtirish nafaqat texnik jihatdan, balki ijodiy yondashuv nuqtayi nazaridan ham ahamiyatlidir. Ularni to'g'ri qo'llash ijroni yanada jonli va ta'sirchan qiladi. Shuning uchun har bir musiqachi va xonanda milliy musiqa merosini chuqur o'rganishi, usullarni amaliyotda mashq qilishi va ularning ijrodagi o'rnini to'g'ri tushunishi lozim. Bu esa o'zbek milliy musiqasining kelajak avlodlarga to'laqonli yetkazilishiga va uning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, usullarni o'rganish jarayonida ularning tarixiy rivojlanishiga ham e'tibor qaratish lozim. Ma'lumki, o'zbek milliy musiqasi qadimiy an'analarga ega bo'lib, uning shakllanishida turli madaniy ta'sirlar muhim rol o'ynagan. Masalan, Shashmaqom tizimida uchraydigan usullar asrlar davomida shakllanib, ijrochilik tajribasi va zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlanib kelgan. Shu sababli, bugungi kunda ham usullarni to'g'ri tushunish va ularni o'zbek musiqa an'analarga mos ravishda ijro etish muhim sanaladi.

Ijrochilik san'atida usulning o'ziga xosligi nafaqat ritmik tuzilishda, balki musiqa ohangini shakllantirishda ham aks etadi. Masalan, Ashula janrida qo'llaniladigan usullar xonandaning ovoz imkoniyatlariga bog'liq bo'lib, ularning har bir zarbi kuyning dinamikasini belgilaydi. Shu bilan birga, cholg'u ijrochiligidagi usullar kuy xarakteriga ko'ra mos tanlanadi. Masalan, dutor va tanburda ijro qilinadigan kuylar yengil va tezkor usullarga moslashgan bo'lsa, nog'ora va doirada ijro etiladigan ritmik naqshlar asosan aniq va izchil uriladigan usullar bilan uyg'unlashadi.

Usullarni chuqur o'rganish nafaqat nazariy bilimni oshirish, balki amaliy ijro mahoratini rivojlantirish uchun ham zarurdir. Shu sababli, talabalar uchun usullarni amaliy mashqlar orqali o'zlashtirish juda muhim. Xususan, doira yoki boshqa zarbli cholg'ular yordamida usullarni o'rganish, kuy va ashulalarni ritmik tahlil qilish, turli ijrochilar talqinini tinglash usullarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, har bir talaba o'z ijrochilik yo'nalishiga mos usullarni aniqlab, ularni repertuariga tatbiq qilishni o'rganishi lozim.

Shashmaqom mushkilot bo'limining hammasi uchun yana bir harakterli narsa shuki, ular asosan "xona" va "bozgo'y" deb atalgan kuy bo'laklaridan tuzilgan. Ular bir yoki bir necha kuy jumlasidan tashkil topishi mumkin.

Xona – uy, xona ma'nosida, ya'ni kuyni tashkil etgan tovushlar va uning boshqa elementlari joylashtirilgan xona ma'nosini bildiradi. Yuqorida risolalar asosida musiqa asrlarining shakli haqida gapirilganda sar xona (bosh, asosiy xona) miyonxona (o'rta xona) va bozkuy iboralari uchratilgan edi. Hozirgi kunda ham maqomchi ustozlar Sarxat, Miyonxat bosh jumla (o'rta jumla) kabi iboralarni musiqa istilohida qullaydilar.

Dugoh maqomida esa Muhammasi Chor Sarxona (to'rt sarxonali muhammas) da shunday nom bizgacha saqlanib qolgan. Demak, bu iboralar, bizning kungacha musiqa istilohida saqlanib keldi va turli shakllar va ma'nolarda hozirda ham ishlatiladi.

Bozgo'y (kuyning qaytarma bo'lagi) esa kuyning takrorlanadigan qismi (refren) bo'lib, xonaning har bir oborotidan so'ng qaytariladi. Ko'pincha, kuyda qancha xona bo'lsa, shuncha bozguy bo'ladi. Ba'zan bozguylar har bir xonadan keyingina emas, balki ularning bir nechasidan so'ng yoki birinchi xonadan oldin ham kelishi mumkin. Masalan, Tasnifi Navo, Tasnifi Dugoh va boshqalar. Bu haqda o'z o'rnida aytib o'tamiz. Shunday qilib xona va bozguylar, makon cholg'u yo'llarini tashkil etadigan kuy bo'laklaridir. Masalan, mashhur kuy yo'llaridan Tasnifi Dugohni olaylik. Tasnifi Dugoh bozguydan boshlanadi va buni sozandalar turlicha ijro etib kelganlar.

Shashmaqom mushkilot bo'limidagi kuy yo'llarining doira usullari ham turli – tuman va juda murakkabdir.

Mushkilot bo'limidagi kuy yo'llari ko'pincha shu doira usullari nomi bilan ham ataladi. Masalan, Garzun, Muhammas, Sakil Samoyillar shular jumlasidandir. Musiqachi – bastakorlar o'tmishda doira usullarini ifodalashda, ma'lum qoidaga asoslangan ritmlar uslubini ixtiro etganlar (X – XVII asr) tan – tana – tanani hech qanday ma'noga ega bo'lmay, ikki undosh harf va birikmasidan tuziladi.

Shashmaqomning cholg'u bo'limida eng ko'p uchraydigan qismlar biri Muhammasdir.

Ular

- Buzruk maqomida – Muhammasi Buzruk, Muhammas Nasrullovi.
- Rostd maqomida - Muhammassi Rost, Muhammasi Ushshoq, Muhammasi Panjgoh.
- Navo maqomida - Muhammasi Navo, Muhammasi Bayot, Muhammasi Xusayniy.
- Dugoh maqomida – Muhammasi Dugoh, Muhammasi Chorgoh, Muhammasi Xojixo'ja, Muhammasi Chor Sarxona.
- Segoh maqomida – Muhammasi Segoh, Muhammasi Ajam, Muhammasi Miza hakim, Muhammasi Bastanigor.
- Iroqd maqomida – Muhammasi Iroq nomlari bilan ataladi.
- Muhammas – belgilangan beshlik ma'nosida bo'lib bu nom juda qadim zamonlardan ma'lumdur. Dastlab bu ibora bilan doira usulining bir turi, she'riyatda esa besh misradan tuziladigan she'r shakli ifodalangan.

1. Tasnif – doira usulining nomi. Shashmaqom mushkilot bo'limining tarkibiy qismi

2. Tarje' – takrorlangan. Shashmaqom mushkilot bo'limining tarkibiy qismi va uning asosidagi doira usulining nomi.

3. Gardun – falak gardishi. Shashmaqom mushkilot bo'limining tarkibiy qismi va uning asosida doira usulining nomi.

4. Muhammas – beshlik, Shashmaqom mushkilot bo'limining tarkibiy qismi va uning asosini tashkil qiluvchi.

5. Saqil – og'ir, vazmin. Shashmaqom mushkilot bo'limining qismi va uning doira usulining nomi.

6. Peshrav – oldinga intiluvchi. Kuy rivojining uslubi. Shashmaqom mushkilot bo‘limi tarkibiy qismi va uning negizidagi doira usulining nomi.

Quyida keltirilgan asarlarning usulini tahlil qiling:

M.M. ♩ = 72 - 74
I Xona

TASNIFI SEGOH

7

14

19

M.M. ♩ = 66
Bozguy

TARJEI SEGOH

p

7 xona


14

19

M.M. ♩ = 72


I Xona

XAFIZI SEGOH



7

Bozguy




11

M.M. ♩ = 108

I Xona

GARDUNI SEGOH



6



II xona



12







18



M.M. ♩ = 66

I Xona

SAQILI BASTA NIGOR



II BOB. AMALIY QISM

2.1 Tanlangan cholg' u yo' lini nota matnlariga qarab ijro etish

O'zbek milliy cholg'ularida nota matnlariga qarab ijro etish ijrochilik san'atining muhim jihatlaridan biri bo'lib, an'anaviy uslublarni saqlagan holda zamonaviy notatsiya tizimini qo'llash imkonini beradi. Har bir cholg' u o'ziga xos tovushga ega bo'lib, nota matnlarini talqin qilishda uning xususiyatlarini inobatga olish talab etiladi. O'zbek milliy cholg'ulari orasida dutor, tanbur, dutor, g'ijjak, nay kabi asboblari alohida ajralib turadi. Nota matnlari ushbu cholg'ular uchun maxsus yozilib, ular lad tizimi, ritmik tuzilma va bezak elementlariga ko'ra farqlanadi. Masalan, maqom tizimiga asoslangan asarlarda nota matnlarida murakkab interval va ohang o'zgarishlari uchraydi, bu esa ijrochidan maxsus texnikani talab qiladi. Dutor va tanbur kabi cholg'ularda esa trel, portamento va legato kabi bezaklar keng qo'llaniladi.

Nota matnlariga qarab ijro etish jarayoni bir necha bosqichdan iborat. Dastlab, nota yozuvlarini tahlil qilish, lad va ritmik tuzilmani aniqlash lozim. Keyingi bosqichda texnik mashqlar yordamida ijro uchun zarur bo'lgan elementlarni o'zlashtirish amalga oshiriladi. So'ngra, asarning musiqiy talqini shakllantirilib, dinamik belgilarga va ijro uslubiga e'tibor qaratiladi. O'zbek milliy cholg'ularida ovozning tabiiyligini saqlash muhim bo'lib, bu cholg'uga xos maxsus texnikalar orqali amalga oshiriladi. Ijro jarayonida ansambl va yakkaxon ijrochilik tamoyillari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek musiqasida ansambl ijrosi keng tarqalgan bo'lib, bu jarayonda nota matnlarini uyg'unlashtirish va ijrochilar o'rtasida muvofiqlikni ta'minlash talab etiladi. Biroq milliy cholg'ular ijrochiligi faqatgina nota matnlariga asoslanib qolmaydi, balki ijrochining o'ziga xos uslubi va improvizatsiya mahorati ham katta ahamiyatga ega. Shu bois, ijrochi nota matnlariga tayanib, asarga ijodiy yondashishi lozim.

SAYQAL

Faxriddin Sodiqov musiqa rahbarligidagi "Maqom" ansambli ijrosidan yozib olingan

O'zbek xalq kuyi

Ilyos Arabov notalashtirgan

♩ = 60



5

9

14

19

24

29

34

39

mf

f

p

poco cresc.

mf

44

49 *f*

54

59

64

69 *f*

74

79 *mp*

84

89

93 *rit.*

2.2 Asarni cholg'ularga bo'lish

Ansambl repertuaridan asosiy o'rin olgan Shashmaqom turkumi va Farg'ona — Toshkent maqom yo'llarini ijro etishda ustoz san'atkorlar Yunus Rajabiy va Faxriddin Sodiqovlardan meros qolgan badiiy an'analar ijodiy davom ettirilmoqsa. Masalan, 1980-yillar oxirida ansambl ijrosida taniqli sozanda Abduxoshim Ismoilov rahbarligida, Buzruk maqomining Nasr (ashula) bo'limi turkumlarini o'ziga xos ijro talqinida aks ettirgan gramplastinka yozuvlari fikrimizning yaqqol dalilidir. Ayni paytda amalga oshirilgan ushbu ijodiy mehnat maqomlarni lazer disklariga yozib olishdek benihoya muhim tadbirlarning yangi davri boshlanganligidan dalolat beradi.

Binobarin, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlarining, qolaversa Farg'ona — Toshkent maqom yo'llarining yangi ijro talqinlarini ham oltin fondga yozish davom etmoqda. Ansamblning ko'p yillar davomida orttirgan ijro malakasi va jamlagan ijodiy quvvati bu kabi vazifalarni hal etishga yetarlidir. Xozirda ushbu ansamblga Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti "Maqom cholg'u ijrochiligi" xamda "Maqom xonandaligi" kafedralarini bitirgan yoshlar taklif qilinib ulardan unumli foydalanilmoqda.

Ushbu o'quv qo'llanmadan talabalarimiz maqom o'rganishda, ansambl ijrochilik sirlarini o'rganishda, qolaversa milliy mumtoz musiqamizni o'zlashtirishda keng foydalanishi mumkin.

O'quv qo'llanmada Shashmaqom mushkilot bo'limidan, milliy mumtoz kuylardan bastakorlar asarlaridan ansambl ijrosi uchun nota yozuvlari berilgan. Ushbu nota yozuvlarida ornamental bezaklar va zarblar maxsus belgilar orqali ifoda etilgan. Ana shu belgilar orqali ijro etilsa biz an'anaviy ijrochilikka xos bo'lgan nola qochirimlar, zarblar va bezaklarni puxta o'zlashtira olamiz. Bunda albatta ustoz shogird tizimi muxim ahamiyat kasb etadi. Chunki o'qituvchi albatta bu bezak va zarblarni chalib ko'rsatib berishi zarur. Sozandalar ansambli bilan dars o'tish jarayonida albatta ustozlar o'zining ko'p yillik tajribasiga suyanagan xolda olib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi..

O'quv qo'llanmani diqqat bilan o'qib, mavzularini o'zlashtirishni boshlasangiz, ayrim, faqatgina musiqachilar tushuna oladigan iboralarga duch kelasiz. Keyingi kasbiy faoliyatingizda quyidagi iboralar tez-tez uchrab turadi, ularni izohlari bilan o'rganib, bir umrga tushunib olishingiz zarur:

Puflama cholg'ular. O'z nomi bilan, demak, faqat puflasa sado taratadigan cholg'ular bunday nomlanadi. Cholg'uning g'ovak ustinida ma'lum miqdorda dam (havo) yig'ilsa, bosim ostida barmoqlar harakati yoki lab mahoratidan turli balandlikda yoqimli tovushlar tartibli yangraydi. Bu toifa cholg'ularni ayrimlar — damli cholg'ular deb ham ishlataverishadi; Torli cholg'ularning sozlanishi. O'z nomi bilan ma'lum bir ko'rinishdagi, tovush chiqarish uchun bir nechtdan yo'g'on yoki ingichka torlar tortilgan cholg'ular nazarda tutiladi. Torlari ichakdan yoki misdan bo'lishi mumkin. Ulardan sado taratishning asosiy usullari ham turlicha, masalan, barcha torli cholg'ularga nisbatan (bir-biridan farqlash uchun) mana bunday iboralar qo'llaniladi. Torli-urma (demak, torlariga urib chalinadi), Torli-chertma (demak, torlarini chertib yoki tirnab chalinadi), Torli-kamonli (demak, torlari ustida kamon tortib chalinadi); Cholg'ularning yozilish diapazoni. Har qanday cholg'u o'z tovushlarining

sadolanishiga qarab aniq diapazonga ega bo'ladi. Butun dunyo musiqachilari qabul qilgan 5 ta nota chizig'ida sozandalar notaga qarab chalishlarida qulaylik zarurligi uchun musiqiy kalitlar tanlangan va o'sha kalitlarda (eng pastki tovushdan eng baland tovushgacha) notalar yordamida kuylar yoziladi. Mana shu nota yozuvlari "cholg'ularning yozilish diapazoni" deyiladi.

Cholg'ularning eshitilish diapazoni. Aksariyat cholg'ularda musiqa notasi qanday yozilgan bo'lsa, o'shanday eshitiladi. Ayrim cholg'ularda esa notalar yozilganidan ko'ra boshqacha eshitilishi mumkin – past yoki baland. Bunday cholg'ular musiqachilarning tilida "transpozitsiya qilinadigan cholg'ular" deyiladi. Evropa cholg'ulari turli intervallarga (sekunda, tersiya, kvarta, kvinta, seksta, kabi) transpozitsiya qilinishi mumkin. Bizning milliy cholg'ularimiz esa asosan yozilishiga qaraganda 1 oktava yuqori yoki 1 oktava past eshitiladi. Keyinchalik bunday cholg'ularni aniq bilib olasiz.

Cholg'ularning eng ko'p qo'llaniladigan yozilish diapazoni. Ayrim cholg'ularimiz o'zining butun diapazoni bo'ylab jarangdor tovush taratmasligi mumkin. Ma'lumki, musiqasevarlarga jarangdor bo'lmagan tovushlar yoqmaydi. Shuning uchun ijodkorlar aksariyat cholg'ularning jarangdor tovushlarini ishlatib asarlar yozishadi. "Eng ko'p qo'llaniladigan yozilish diapazoni" deb shunga aytiladi.

Cholg'ularning transpozitsiyalanishi. "Cholg'ularning eshitilish diapazoni" iborasi boshqacha qilib aytganda, "cholg'ularning transpozitsiyalanishi" ham deb nomlanadi.

Demak, notada yozilish biri, eshitilishi esa boshqa bo'ladi.

Epizodik cholg'ular. Kino san'atida 'epizodik rollar' degan tushuncha bor, bu degani, ma'lum bir obraz (aktyor) kerak paytda bir paydo bo'ladi-yu, so'ng kerak bo'lmaydi.

Buni cholg'ularga nisbatan ham ishlatga bo'ladi, musiqiy asarning qaysidir bir qismida o'z tovush sadolari bilan paydo bo'ladi-yu, so'ng yangramaydi. O'zbek xalq cholg'ulari ansambllarida ishlatilishi mumkin bo'lgan bir talay xususiyatli cholg'ularimiz ham bor, ular – an'anaviy surnay, sato, qayroq kabilardir.

Puflama cholg'ular guruhi

O'zbek xalq cholg'ular ansambllariining asosiy guruhlaridan biri puflama cholg'ulardir. Puflama cholg'ular guruhiga nay, qo'shnay, sunray va bulamon kiradi. Lekin ansambllarda asosan nay va qo'shnay sozi ishlatiladi. Ushbu cholg'ularning tovushqator asosi tabiiy tovushlardan tashkil topgan bo'lib, ular dam bosimi (puflash) orqali hosil qilinadi.

NAY


Nay qadimdan O'rta Osiyoda jumladan, O'zbekiston musiqa madaniyatida sevimli cholg'u sifatida qo'llanib kelinmoqda. Ular yasalishiga ko'ra turlicha nomlanadi. Masalan: g'arov (bambuk) nay, yog'och nay va mis nay. Eng ko'p qo'llanadigani yog'och va g'arov naylaridir. Cholg'u silindr yumaloq shaklda ichi g'ovak bo'lib, diametri 20-30 mm, uzunligi 450-520 mm. Cholg'u diatonik tovushqatorga ega. Nayda ijro etish uchun o'ng va chap qo'llarning uchtadan barmoqlari ishlatiladi. Ovozning baland pastligiga qarab teshiklar barmoqlar bilan

butunlay yoki yarim berkitiladi. Nayda Shashmaqom, o'zbek xalq kuylari, mumtoz musiqalarni va bastakorlar asarlarini ijro etish mumkin. O'zbek milliy maqom ijrochiligida ustoz san'atkorlardan Abduqodir Ismoilov, Maxmudjon Muxamedov, Mirza Toirov, Abdulaxad Abdurashidov, Xurshid Oripov, Toxir Qaxxorov, Donyor Yunusov va bir necha yoshlarni munosib xissasi bor deyish mumkin.




Asosiy tovushqatori

Qattiq puflash



Diapazon Foydalaniladigan

tovush kengligi



Nay ansamblida yuqori tovushlarini ijro qiluvchi cholg'u hisoblanadi va yozilganidek eshitiladi. Masalan:

Yozilishi

Eshitilishi



Baland registrlar tovushi jilosi jihatidan har biri o'ziga xoslik kasb etadi. Ya'ni, pastki registrda quyuq, so'lim jaranglagan holda pp chalish ancha qiyin. O'rta registr jozibador va tobora balandlashgani sari tovushlar keskin tus oladi. Ikkinchi oktava lya va undan baland notalar f chalish orqali hosil qilinadi. Nayda har xil passaj, melizm, sakratma usulida asarlar chalish mumkin.

Nay ansamblida yetakchi sozlardan hisoblanib, asosan Shashmaqom kuylarini, xalq kuylarini ijro etishda muhim ahamiyatga ega. Shashmaqom mushkilot qismida, ko'proq avj pardalarda nay cholg'usiga ijro etish imkoniyati beriladi.

Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Nay	(«lya»)	«Lya» birinchi oktavadan – «Re» 4-oktavagacha	Yozilganidek eshitiladi	Transpozitsiya qilinmaydi


SURNAY




Surnay qadimiy sozlardan bo'lib, bayramlarda, to'ylarda tadbirlarda ijro etilgan. Toshkent- Farg'ona surnay ijrochiligi cholg'u yo'llarida nafas bilan birgalikda tovushni boshqarishda, nola-qochirim ishlatishda til ham ishtirok etadi. Xorazm surnaychilik yo'nalishida qaytarma nafas ishlatilganligi sababli til ishtirok etmaydi. Faqatgina stakkatolarda til ishlatiladi.

Asosiy tovushqatori

Qattiq puflash



* Surnayning ikkinchi pardasi kam ishlatiladi, bu parda yordamchi parda hisoblanadi.
Diapazon Foydalaniladigan tovush kengligi



Surnay tovushi sozlar ichida jarangi bilan ajralib turadi. Shuning uchun surnay sozi ansambllarda ishlatilmaydi. Ular bayram tadbirlarida ko'proq ishlatiladi. Surnay yozilganidek eshitiladi.

Masalan:

Yozilishi


Eshitilishi




Surnay tembr jihatidan kuchli, keskin tovush beradi. U bir tekis melodik yo'lni o'zining aniq intonatsiyasi, to'liq sadolanishi va texnik imkoniyati bilan meyoriga yetkazib bera oladi. Surnay pastki va yuqorigi registrlarida ham kuchli, aniq, inson diliga kirib boradigan o'ziga xos jozibali tembrga egadir.

Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Surnay	(«lya»)	«Do-diez» birinchi oktavadan «Do» uchinchi oktavagacha	Yozilganidek eshitiladi	Transpozitsiya qilinmaydi

QO'SHNAY



Asosiy tovushqatori.



Qo'shnay-ikkita bir xil kattalikdagi qamish naychalardan yasalgan bo'lib, uning texnik imkoniyatlari cheklangan.

Diapazon

Foydalaniladigan tovush kengligi



Qo'shnay-damli-tilchali qamishdan yasalgan cholg'udir. U O'zbekistonning Farg'ona vodiysida va Xorazm voxasida keng ommalashgan. Bu o'ziga xos ovoz tarovatiga ega bo'lgan, kuychan lirik asarlarni ijro etuvchi cholg'u bo'lib, o'rta registri qamrab oladi. qo'shnay silindr shaklidagi naylardan iborat bo'lib, ular bir-biriga shoyi iplar bilan birlashtirilgan.

Qo'shnayning yuza qismida ijro etish uchun yettita teshiklar mavjud bo'lib, ularning uzunligi 6 mm, eni 3 mm. Naychalarning berk tomoniga yaqin joyda tovush chiqarish uchun maxsus tilchalar kesilgan. Naychalarning o'lchovi va tuzilishi bir xil bo'lganligi sababli ularda bir vaqtda ijro etiladi. Cholg'uda ijro etish uchun chap qo'lning uchta va o'ng qo'lning to'rtta barmog'i ishlatiladi. Unda boshqa damli cholg'ular singari barmoqlarning uchi emas, balki ikkala naychalardagi parallel teshiklarni berkitish uchun barmoqlar tekis cho'zilgan xolatda qo'llaniladi.

Qo'shnay ansambllarda asosiy sozlardan bo'lib, kuyni ayrim frazalarini chiroyli ijro eta oladi. Ansambl jo'rligida kuylar ham ijro etish imkoniyatiga ega. Bu cholg'u uchun bastakorlar tomonidan yozilgan kuylarni tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi, yozilganidek eshitiladi. Qo'shnayning dinamik imkoniyatlari katta, *pp* dan *ff* gacha chalish mumkin.

Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Qo'shnay	(«lya»)	«Re» birinchi oktavadan – «Lya» 2-oktavagacha	Yozilganidek eshitiladi	Transpozitsiya qilinmaydi

TORLI URMA CHOLG'U GURUHI


CHANG



Bu cholg'u sozi jarangli tovushga ega bo'lib, ansambldagi o'rni juda kattadir. Chang sozining torlari oralig'i xromatik joylashgan.

Diapazon

Foydalaniladigan tovush kengligi




Bu guruhga katta mas'uliyat yuklangan holda, ular asosiy kuyni, jo'rnavozlikni har xil interval, arpedjio, glissando, pissikato usullarini bimalol ijro qiladi.

Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Changlar	Yarim tondan temperatsiya bo'yicha (xarraklar joylashuvidan kelib chiqadigan noziklikni alohida o'rganish lozim).	«Sol» kichik oktavadan – «Fa diez» 3-oktavagacha	Yozilganidek eshitiladi	Transpozitsiya qilinmaydi

QONUN


Torli-urma cholg'ular guruhiga "qonun" cholg'usi ham kiradi.



Qonunda o'ng va chap qo'llarning ko'rsatkich barmoqlari bilan birin-ketin yoki birdaniga ijro etiladi. Ijro vaqtida barmoqlarga mizrob o'rnatilgan maxsus doira shaklidagi moslama kiyiladi va ular yordamida torlarni chertish natijasida tovush xosil bo'ladi. Qonun ovozi mayin va yoqimli. Unda boshqa cholg'ularga nisbatan glissando usuli ko'proq ishlatiladi. Ushbu sozda ko'proq tremolo va stakkato zarblari qo'llaniladi.


MIZROBLI CHOLG'ULAR GURUHI

RUBOB




Sozlanishi

Diapazoni



Foydalaniladigan tovush kengligi



Yozilganidan bir oktava past eshitiladi.

Rubob cholg'u sozini O'zbekistonda ommaviylashib ketishida ustoz san'atkor Muxammadjon Mirzayevning xizmati katta. Qolaversa u kishi yaratgan bir-biridan go'zal kuylar, o'g'illari Shavkat Mirzayev bilan rubobda birgalikda ijro etgan asarlari o'zbek xalqining qalbidan chuqur o'rin egallagan. M. Mirzayev yaratgan "Jonon", "Ufori Sanam", "Tanovar"ning yangi turlari fikrimizning yorqin dalilidir.

Rubob sozining mohir ijrochilaridan Ergash Shukurullayev, Abbos Bahromov, Qobiljon Usmonov, Sulaymon Taxalov, Ari Boboxonov, Adxam Xudoyqulov, Tohir Rajabiy, Rifatilla Qosimov va yana bir qancha sozandalarni tilga olish mumkin. Sozanda, hozirda Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti "Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrası professori Rifatilla Qosimov 1983 yili bo'lib o'tgan 1 Respublika maqom ijrochilari tanlovida rubobda Shashmaqomning murakkab turkum asarlarini ijro etib, u rubob sozida Shashmaqomdek yirik asarni jozibador qilib ijro etish mumkinligini isbotlab berdi.

Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Qashqar ruboblar	1-va 2- qo'sh torlar - «Lya» birinchi oktava; 3- va 4- qo'sh torlar «Mi» birinchi oktava; 5-tor** «Si» yoki «Lya» kichik oktava.	«Si» yoki «Lya» kichik oktavadan – «Fa» 3-oktavagacha	«Si» yoki «Lya» katta oktavadan – «Lya» 2-oktavagacha	Yozilganidan 1 oktava past eshitiladi


TANBUR




Tanbur uozilganidan bir oktava rast yeshitiladi. Tanbur sozi o'rta va rast registr tovushini beradi, kuu asosan 1 shi torda shalinadi, qolgan torlari ikkinshi tovush (akkord) ni beradi. **Tanbur** sozida ijrochilik holati ikki xil tarzda kuzatiladi:

1) tanburning kosasini ko'krakka yaqinroq qo'yish, chap qo'lni dastaga tekkizmasdan yuritish (avvalgi hofizlarda kuzatiladi).

2) tanburning kosasini tizzaga yaqin qo'yish, chap qo'lni dastaga tekkizgan holda yuritish (Turg'un Alimatovning ijrochilik holati). Tanburda tovush hosil qilish uchun o'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'iga noxun taqiladi va torga chertish orqali tovush chiqariladi. Tovush chiqarishda o'ng qo'lning vazifasi katta. Parda bosish, milliy ijro bezaklari, nola-qochirimlarni chap qo'l bilan bajariladi.



Foydalaniladigan tovush kengligi



Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Tanbur	1-tor «lya» kichik oktava 2-tor «mi» kichik oktava 3-4-tor «lya» kichik oktava	«mi» kichik oktava «re» 3 oktava	«mi» katta oktava «re» 2 oktava	Yozilganidan 1 oktava past eshitiladi

DUTOR



Dutor Markaziy Osiyodagi o'zbek, tojik, uyg'ur, turkman, qoraqalpoq xalqlarida keng tarqalgan. O'zbek dutori muloyim, nafis va shirali ovozi bilan boshqa cholg'ulardan ajralib turadi. Dutorning uzun va ingichka dastasiga 13-17-ta parda

bog'lanadi. Torlari ikkita, ipak iplaridan yasalgan. Dutor- Ijroviy diapazoni bir yarim oktavani qamrab oladi. Kvarta, kvinta, qo'shtor (unison), oktava hamda sekunda oralig'ida sozlanadi.

O'zbekistonda dutorning lokal turlari mavjud – xorazm, farg'ona, toshkent, buxoro, boysun, qoraqalpoq, qashqar kabi dutorlar (ular uzunligi, kosaxona, pardalar soni, torlari bilan ajralib turadi). O'zbek dutorlari kvarta, kvinta, ba'zi asarlar ijrosida unison sozlariga sozlanadi. An'anaviy ijrochilik san'atida dutor ijrochiligi o'ziga xos o'rin egallaydi.

O'zbekistonda Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Xorazm dutor ijrochiligi maktablari mavjud. Bunga misol qilib o'ziga xos uslublari va mavqeiga ega bo'lgan ijrochilar M. Najmiddinov, O. Rustamov, Q. Madrahimov, A. Vahobov, Faxriddin Sodiqov, Maxmud Yunusov, Turg'un Alimatov, Zokirjon Obidov, Orif Qosimov, A. Abdurasulov, S. Yusupov, N. Boltayev, Nematjon Qulabdullayev, Abduraxim Hamidov, Malika Ziyoyeva, Ahmadjon Abduraximov, Ro'zibi Xodjayeva, Iqbolxon Toshpo'latova, Shuhrat Razzoqov, Go'zal Mo'minova, Ilyos Arabov, Farangiz Ziyayeva, Mehrinigor Abdurashidovalarni aytish mumkin. Ushbu ustozlar dutor sozida Shashmaqom cholg'u qismini, xalq kuylarini va bastakorlar asarlarini moxirona ijro etganlar. Shashmaqom mushkilot va nasr bo'limlarida dutorlarga alohida xonalarni yoki nasr qismida namudlarmi bo'lib beish mumkin.

UD



Ud torli chertma (mizrobli) cholg'ular guruxiga kiradi. U O'zbekiston xududida uzoq o'tmishda xam keng qo'llanilgan. Tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha udning dastlabki nomi **borbad** deb yuritilgan. Ud tembri afg'on rubobi tembriga juda yaqin, lekin texnika va dinamika jixatdan unga yon bosadi. Uning tovushi mayin va nozik. Zamonaviy udning yutug'i shundaki, unda milliy kuylarimiz bilan bir qatorda, Shashmaqom turkum kuylarini va mumtoz musiqalarimizni ijro etish imkoniyatlari mavjud.


Cholg'uda yakka zarb, qo'sh zarb, rez, bilak zarb, zarbi parron, ufor zarb ko'proq ishlatiladi. Ud cholg'usi maxsus mizrob bilan ijro etiladi. Shashmaqom, milliy mumtoz musiqamizni ijrosida ud sozining o'rni juda katta. Ushbu soz asosan pastki ovozlarni

mayin ijrosida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Ud cholg‘u sozi ansamblda keng qo‘llaniladi. Uning tovushi asosan pastgi registrnlarni ushlashda muhim ahamiyatga ega. Ud qadimiy cholg‘ulardan biridir. Lekin O‘zbekistonda bu cholg‘u va qonun cholg‘usi ma‘lum vaqt iste‘moldan chiqib ketgan. Uni o‘tgan asrning 80-yillarida Sulaymon Taxalov tashabbusi bilan qayta iste‘molga kiritilgan. Shundan so‘ng uni ommalashtirishda ustoz boshchiligida Rifatilla Qosimov, Abdunabi Ziyoyev, Shomahmud Shorahmedov, Zulxorbek Turopov kabi sozanda ustozlar samarali faoliyat olib borishdi va ko‘plab shogirdlar yetishtirishdi. Hozirgi kunda bu cholg‘uning mohir ijrochilari talaygina. Toir Qo‘ziyev, Husniddin Atoyev, Alijon Jo‘rayev, Mashhurbek Xolmatov singari yana ko‘plab udchi sozandalarni sanash mumkin.

KAMONLI CHOLG‘ULAR GURUHI

G‘IJJAK

G‘ijjak - kamonli cholg‘ular turiga kiradi. Uni ijro qilishda o‘ng qo‘l bilan kamon ushlanib, chap qo‘lda parda bosiladi va ijro bezaklarini qo‘llaniladi. G‘ijjakda kamonga tortilgan yol va simning ishqalanishi natijasida tovush hosil bo‘ladi. Uning tovushi cholg‘ular ichida inson ovozigacha Eng yaqini hisoblanadi.



G‘ijjakda ijro etish uchun chap qo‘lning barmoqlari ishlatiladi. O‘ng qo‘l kamon tortish uchun xizmat qiladi. G‘ijjakning zarblari va ijrochilik imkoniyatlari rang-barangligi tufayli u yakkanavoz va ansambl tarkibidagi asosiy vazifani bajaruvchi jo‘rnavoz sifatida qo‘llaniladi. U torli-kamonli cholg‘ular ichida ijro imkoniyatlarining boyligi bilan ajralib turadi. An‘anaviy ijrochilikda, Shashmaqom, mumtoz kuylarni ijro etishda nola, qochirimlar g‘ijjak sozida asosiy o‘rin tutadi.

G‘ijjak ijrochiligida ham turfa xil uslublar mavjud. To‘xtasin Jalilov, Imomjon Ikromov, G‘anijon Toshmatov, Komiljon Jabborov, Mamataziz Niyozov, Mirzaqurbon Soliyev, Doni Zokirov, Sobirjon Siddiqov, G‘ulomjon Hojiqulov, Ollonazar Hasanov, Yunusqori Yusupov, O‘lmas Rasulov, Abduhoshim Ismoilov, Ahmadjon Dadayev, Muhammadjon Maraximov, O‘tkir Qodirov, Salohiddin Azizboyev, Nabijon Qodirov singari yana bir qator g‘ijjakchi sozandalarni sanab o‘tish mumkin. G‘ijjak ijrochiligi

uslublari hozirgi kunda musiqiy ta'lim muassasalarida munosib tarzda yoshlarga o'rgatib kelinmoqda.

Ansamblida g'ijjak sozi muhim vazifani bajaradi. Shashmaqomda yuqori registrlarni ijro etishda o'zining jozibador ovozi bilan ajralib turadi.



SATO



Sato tanbursimon cholg'ular oilasiga kiradi. Uning to'rtta asosiy (metall-latun) va to'rtta aks sado beruvchi, dastaning yon tomonidagi quloqlarga taqilgan yordamchi torlari bor. qopqog'ining o'rtasida bir dona naqshinkor, chetlarida ikki dona «tomchi» ko'rinishidagi rezonatorlar mavjud. Cholg'uda asosan tovush kamon orqali xosil qilinadi, ba'zi paytlarda esa noxun bilan xam chalinadi.

Satoning pardalari (14) baland, torlari esa bo'sh taqilganligi sababli unda an'anaviy ijrochilikda qo'llaniladigan kashish, nolish, molish kabi bezaklarni ijro etish qulay. Shuningdek legato, portamento, detache, stakkato kabi zarblar qo'llaniladi.

Satoda xam tanbur singari asosan milliy musiqamiz va maqomlarimiz ijro etiladi, shuning uchun sham u o'zbek xalqining qadimiy ijrochilik an'analarning davomchisi xisoblanadi. Maqom ijrochiligimizda sato cholg'usini O'zbekistonda keng

targ'ib qilishda albatta ustoz san'atkor Turg'un Alimatovning xizmatlari beqiyosdir. O'tgan asrning 60-70 yillaridan boshlab betakror sozanda Turg'un Alimatov bu cholg'uni o'zining go'zal ijrosi bilan judayam keng ommalashtirdi. Xozirda Toir Qo'ziyev, Abror Zufarov kabi sozandalar ustozning davomchilari sifatida faoliyat olib bormoqdalar.

URMA ZARBLI CHOLG'ULAR

Urma zarbli cholg'ular ansamblda zarur cholg'ulardan hisoblanadi. Ayniqsa Shashmaqom va xalq kuylarini doyra usulisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

DOYRA




Doyra eng ko'p tarqalgan o'zbek xalq cholg'ularidan biri hisoblanadi. Uning tovushi muayyan balandlikka ega emas. Doiraning gardishi tut, yong'oq, o'rik, uzum zangi va buk darxtidan egma va yig'ma ravishda yasaladi. Uning bir tomoni mol terisi bilan qoplanadi. Gardishining ichkari tomoniga 59 dona metall xalqachalar o'rnatilgan bo'lib, ular ijro paytida shovqin tovushlar chiqaradi. Cholg'uning diametri 380-400 mm.gacha teng.

Cholg'u zarblar xamda dinamika jihatdan boy imkoniyatlarga ega. Doyrada ijro etish uchun o'ng va chap qo'llarning xamma barmoqlari ishlatiladi. Doyrachining maxorati uning chiroyli ovoz tarovati va dinamikadan unumli foydalanishi bilan belgilanadi. Doyra ovozini birinchi darajali xususiyati xam shundan iborat.

Doyraning nota belgisi maxsus ikki qatorli nota yo'lida o'ng qo'l uchun aloxida va chap qo'l uchun aloxida yoziladi. Shashmaqom, mumtoz musiqamiz, o'zbek xalq raqslari rivojida o'z xissasini qo'shgan ustoz To'ychi Inog'omov, G'ofir Azimov, Dodaxo'ja Sottixo'jayev, Qaxramon Dadayev, Tal'at Sayfuddinov, Raxmatilla Samadov, Qudratilla Samadov, aka uka Dilmurod, Xolmurod va Elmurod Islomovlar va juda ko'p yosh doyrachilarni tilga olishimiz mumkin.

Doyra nota yozuvi 4 ta chizikka yoziladi, shundan ikkita pastki chiziq ung qo'lga, ikkita yuqorigi chiziq chap qo'lga mo'ljallanadi.

Chap qo'l



O'ng qo'l

Doyra

Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Doyra	Sozlanmaydi, me'yorida qizdiriladi, umumiy partiturada bir chiziqda «bum-bak» usul shaklida yuqoridan yoki pastdan yoziladi. Yakkanaovozlik asarlarida o'z yozuv nota grafikasiga ega.	-	-	-

Nog'oralar

Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Nog'oralar	Sozlanmaydi, 2 ta, me'yorida qizdiriladi, bir chiziqda «tak-tum» usul shaklida yuqoridan yoki pastdan yoziladi.	-	-	-

NOG'ORA



Zarbli cholg'ulardan biri nog'oradir. Ular 2 dona bo'lib, asosan sopoldan yasaladi. Ularning og'zi mol terisi bilan qoplanadi va teri tarang tortilib turishi uchun uning chetlari ichakdan to'qilgan to'r bilan maxkamlab qo'yiladi.

Ba'zi bir cholg'ular korpusi ostida yog'ochdan yasalgan gardishi (tagligi) bo'ladi. Nog'oralar kichik xajmda bo'lib ulardan kattalari qadimda xarbiy maqsadlarda, kichiklari esa ayni paytda xam to'y-marosimlari va xalq sayillarida karnay, surnay va doira bilan birgalikda qo'llaniladi.

Xozirgi kunda nog'oralar tagligi bilan (podstavka) bilan birga bir xil xom ashyodan tayyorlanmoqda. Cholg'u ma'lum bir tovushga sozlanmaydi, lekin terisi qizdirilgandan keyin uning ovozi balandlashadi.

Nog'oralar bir-biriga nisbatan kvarta oralig'ida jaranglaydi. Tovush maxsus tayoqchalarni teriga urish natijasida xosil bo'ladi. Cholg'u o'ziga xos ovoz tarovati

bilan boshqa cholg'ulardan ajralib turadi. Ular uchun bir chiziqli nota yo'li ishlatiladi, notalar chiziq ostiga va chiziq ustiga yoziladi. Chiziq ostidagi notalar past tovushli nog'oraga, chiziq ustidagi nota baland tovushli nog'oraga taaluqlidir.

Nog'orolar yakkanavoz xamda jo'rnavoz sifatida turli xildagi ansambllarda qo'llaniladi. Asosan Shashmaqomning taronalarida ko'proq qo'llaniladi. Nog'ora sozini barcha doyrachilar yaxshi o'zlashtirgan.

Kuyni moslashtirish

Kuy – musiqaning asosi, asar mazmunining eng asosiy tomonini ifodalaydi. Zero, mustaqillik davrida milliy musiqaga bo'lgan e'tibor, xususan cholg'u janrining mahalliy ko'rinishlari, kuylarning shakl hamda ohang jihatlari, cholg'u ijrochiligining badiiy mezonlari va nihoyat, uning professional ijrosiga imkon yaratmokda. Ayniqsa, Xorazm musiqa san'ati xususiyatlarini belgilab beruvchi qo'l sozi (garmon) va bulamon, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand hududlaridagi musiqa vositasi hisoblangan do'mbira sozlarining nay, qo'shnay, surnay, karnay, chang, qonun, rubob, dutor, tanbur, sato, ud, g'ijjak, doyra, nog'oralarning o'zbek cholg'u sozlari sifatida o'z vazifa va qiyofalarini saqlab qolishi o'zbek milliy musiqa san'atining to'g'ri yo'lda ekanligidan dalolat beradi. Bu jarayonga sozgarlar ham o'z hissalarini qo'shib kelmokdalar. Mustaqillik davrida o'zbek guruhli cholg'u ijrochiligi san'atida badiha (improvizatsiya) uslubidagi yo'nalish paydo bo'ldi. Mazkur oqim milliy musiqamiz tabiatidan yaxshi boxabar, nazariy va amaliy mushohadali, ijroviy imkoniyatlari yuqori darajadagi sozandalar - O'zbekiston xalq artisti Abduhoshim Ismoilov (g'ijjak), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Abdulaxad Abdurashidov (nay), Abdurahmon Xoltojiyev (qonun), Qo'chqor Saidov (doira) hamkorliklari natijasida vujudga keldi. Guruh ijrosidagi asarlarning shakliy qurilmasi, intonatsion xususiyatlari, tovush bezaklari, usullar majmui o'zbek musiqiy ijrochilik an'alariga xos va mos tarzda, tovushqatori temperatsiyalanmagan sozlar ishtirokida yaratildi.

Ijro jarayonida sozandalar tomonidan sof cholg'u asarlaridan tortib aytim yo'llariga qilinadigan jo'rnavozlik asnosida to'satdan, erkin, (eksrompt) tarzda ishlatiladigan turli bezaklar mazkur guruh amaliyotida odat tusiga kirib bordi. Aynan ushbu hodisa g'ijjak, nay, qonun cholg'ularining texnik imkoniyatlarini to'la ochib berilishi natijasida badiha uslubining shakllanishiga asos bo'ldi. Ijrodan ijroga bezaklar bilan birgalikda kichik musiqiy lavhalardan foydalanila boshlandi. Oddiy yaratilgan musiqiy lavhalarni tizimlashtirish, sozandalar orasidagi o'zaro mutanosiblikni ta'minlash natijasida ohang yaxlitligiga erishildi va har bir asar o'ziga xos badiiy yechimda nihoyalanadigan bo'ldi. Bunda asar sur'ati, uning barqarorligi g'ijjakning zimmasida bo'lib, doirachi tomonidan hosil qilinadigan *ostinant* ritmik shakl qo'shimcha hamusul sifatida sadolanadi. Yakka cholg'u tomonidan amalga oshiriladigan badiha paytida ohang tizimida ishtirok etmaydigan cholg'ular kvarta, kvinta, oktava intervallarida sadolangan holda usul berib turadilar.

Odatda barcha kuylar ijrosi o'rtacha sur'atda boshlanadi. Badiha asosan asarning avjida, tovush kuchi kuchaytirilib, sur'ati tezlashtirilishi hisobiga amalga oshiriladi. Jarayon susaytirilmasdan, o'ta tez sur'atda dastlab, g'ijjakchi ijrosida boshlab

beriladigan badihani naychi va qonunchi davom ettiradilar. Kuyning to'laqonli ifodasi musiqa ijrochiligida ma'lum bo'lgan bezaklardan tashqari cholg'ularning tembr, akustik xususiyatlari va g'ijjakchi tomonidan ijro qilinadigan improvizatsiya evaziga boyitiladi. Yuksak texnik darajada hosil qilinadigan ohang tizimi va bezaklar mantiqiy izchillikka erishgan holda sayqallashadi hamda asarning muvaffaqiyatli ijrosini ta'minlaydi.

Ijrochilar zahirasidagi kuy bo'laklari, usullar majmui, tovush bezaklarining ilgaridan mavjudligi, bir tomondan ohang shakli, ikkinchi tomondan cholg'uchilar yakdilligi natijasida erishiladigan ijro tarziga ijo-biy ta'sir ko'rsatadi. Natijada guruh tomonidan aks ettiriladigan milliy musiqiy-estetik meyor badiha jarayonini tomosha darajasiga ko'tarilishida muhim omil vazifasini o'taydi. Guruh faoliyatida turli mavzularga bag'ishlangan asarlar o'rin olgan. A.Ismoilovning «To'yona», «Dil bayrami», «Buyuk chinor», «Ahmad Farg'oniy» va yana bir qator asarlari shular jumlasidandir.

Ansambl ijrosida Shashmaqom, xalq kuylarini ijro etganda bunday uslubdan foydalanilmaydi. Maqomlarni o'z holicha saqlab, kelajak avlodga to'g'ri yetkazish har bir ustozning vazifasidir.

Maqomlarning ijrosi sozandalarda katta imkoniyat va mahorat bo'lishini talab etadi. Shu bois o'tmishdagi ustoz sozandalar mukammal ijroni ko'rsatishda jo'rnavor bo'lib, jamoa (ansambl) bo'lib ijro qilganlar. Buning zaminida xonandaning toliqishi inobatga olingan va asarni to'laqonli ijrosi ko'zlangan bo'lsa ajab emas. Cholg'u ijrochiligida ham maqomlar ijrosi uchun keng imkoniyat va mahorat bo'lishini talab etiladi. Musiqiy merosimiz to'plangan oltin fond yozuvlarida ham aksariyat maqomlar xonanda va sozandalar ansambli ijrosida muhrlanganligining ham asosiy sababi shunda bo'lishi mumkin. Ansambl ijrosi asar uchun ham, ijrochi xonanda va sozandalar uchun ham, musiqiy ohanglarning uyg'unlik jozibasini namoyish etishda katta imkoniyatlar yaratib beradi. Kelajak avlodni bunday ijroga, jamoa bo'lib ijro etishga jalb etish, o'rgatish yosh ijrochilarning har tomonlama tarbiyasi, idroki va ijrosi uchun ibratdir.

Musiqa san'ati ta'limida mashg'ulotlarning dastlabki jarayonlaridanoq shogirdni mustaqil ijodiy izlanishga o'rganib borishga yo'naltirish ustoz-shogird an'anasining zarur shartlaridan biri bo'lib, kelgusida yuqori natijalarga erishishning muhim omili hisoblanadi. Chunki musiqa san'atidagi har bir mashg'ulot alohida ijodiy yondoshuvni talab etadi. Kuyni o'zlashtirish, asarni taxlil qilishda ustoz yordami albatta zarur. Ustoz san'atkorlarning ijrolarini sinchiklab kuzatadigan bo'lsak, sahnadagi yoki boshqa shu kabi joylardagi ijrolarining har biri o'ziga xos tarzda ruhiyat va mahorat bilan ijro etilgan. Ayrim ijrolar betakror darajada ijro etilganligiga guvoh bo'lamiz. Buning asosiy sababi shundaki, mohir san'atkorlar har bir ijroga alohida ijodiy yondoshuv va mas'uliyat bilan kirishganliklaridadir.

Shuning uchun Ustoz shogirdiga zarur bo'lgan nazariy va amaliy bilimlarni, yo'l-yo'riqlarni doimiy ravishda ko'rsatib borish zarur.

Buning uchun o'quvchiga:

Mustaqil ijodiy fikrlashni,

Asar uslubini aniqlashni,

Uning ustida ishlashni,

Maqsadga erishib, o'zini kashf etishni o'rgatish lozim.

2.3 Asarning melizmatikasi va dinamikasi ustida ishlash

Musiqiy melizmlar — bu musiqada bir bo'g'inga bir nechta notaning tegishli bo'lishi yoki bir nechta notalarning bir ovozda ijro etilishi. Melizmlar musiqiy ifodani boyitish, ohangni jozibador qilish va musiqiy matnni bezash uchun ishlatiladi. Ular ko'pincha klassik musiqa, xalq musiqasi, diniy musiqa va zamonaviy musiqada uchraydi.

Melizmatikaning asosiy xususiyatlari:

Musiqiy ifodani boyitish: Melizmlar ohangga joziba va rang-baranglik qo'shadi.

Matnni bezash: Musiqiy asarni badiiy jihatdan boyitadi.

Emotsional ta'sir: Qo'shimcha nolalar va bezaklar orqali tinglovchilarda turli hissiyotlarni uyg'otadi.

Uslubiy xususiyatlar: Har bir musiqiy uslub (masalan, ustozlar uslubi) o'ziga xos melizmlardan foydalanishga chorlaydi.

Melizmlarning tarixiy rivojlanishi

Qadimgi davrlar: Melizmlar qadimgi Yunonistonda va Sharq musiqasida keng qo'llanilgan.

Barokko davri (1600–1750): Barokko musiqasida melizmlar keng tarqalgan (masalan, J.S. Bax va G.F. Gendel asarlari).

Sharq musiqasi: O'zbek, arab, hind va boshqa Sharq musiqalarida melizmlar (masalan, maqomlar va ragalar) muhim o'rin tutadi.

Zamonaviy musiqa: Jaz, pop va rok musiqasida ham melizmlar qo'llaniladi (masalan, vokal improvizatsiyalar va instrumental solo qismlar).

O'zbek musiqasida melizmlar

O'zbek musiqasida melizmlar Shashmaqom, xalq kuylari va bastakorlar asarlarida keng qo'llaniladi. Masalan:

Maqomlar: Maqom yo'llarida melizmlar ohangning murakkabligini va ifodaviyligini oshiradi.

Xalq kuylarida: "Dixiroj", "Surmay navosi", "Kurd" kabi cholg'u asarlarida melizmlar keng uchraydi. An'anaviy ijrochilikda ham melizmlar keng qo'llaniladi.

Ashula uslublari: An'anaviy ashularida vokal melizmlar (masalan, "Katta ashula", «Yalla», «Lapar») muhim o'rin tutadi.


Sayqal (mordent) ♪, qo'sh mordent ♪♫, chizilgan mordent ♪♫, chizilgan qo'sh mordent ♪♫.

Mordentning birinchi — asosiy tovushi o'ng qo'l zarbi bilan hosil qilinadi, mordentning qolgan tovushlari esa, chap qo'l barmoqlarini pardaga qo'yish va olish yordamida ijro etiladi. Bu tovushlarni hosil qilishda o'ng qo'l ishtirok etmaydi. Mordent ustiga + (qovshuv) belgisi qo'yiladi. Quyidagi namunalar mos tarzda mordent, qo'sh mordent, chizilgan mordent, chizilgan qo'sh mordentga misol bo'ladi.


yozilishi ijro etilishi




Forshlag (zarb oldi) – qisqa yoki chizilgan forshlag. Quyidagi namuna qisqa forshlagga misol:



Naxshlag (forshlagning aksi). Qisqa yoki chizilgan naxshlagga misol:



Uzun yoki chizilmagan naxshlag. Quyidagi namuna uzun yoki chizilmagan naxshlagga misol bo'ladi.



Naxshlag chap qo'l barmoqlarini pardaga qo'yish yoki olish yordamida ijro etiladi. Naxshlag ustidagi + (qo'shuv) belgisi bu bezakni chalishda o'ng qo'l barmoqlari ishtirok etmasligini bildiradi.

Milliy musiqa namunalarini ijro etishda o'ziga xos bezaklar

O'zbek xalqining barcha san'at turlarida bo'lgani kabi musiqa san'tida sozanda asar ijro qilar ekan, tovushlarga bezaklar, sayqallar qo'shib nafislik bag'shlaydi. Evropada yashab ijod qilgan kompozitorlar tomonidan yaratilgan asarlarda trel, forshlag, mordentlar nota yozuvida o'z aksini topgan bo'lsa, ijrochilik san'atimizda tarixdan og'zaki an'analar bilan ustoz shogird an'analari uslubida bizgacha yetib keldi. Sayqallar asosan ijrochining mohirligiga bog'liq bo'lib, har bir sozanda musiqiy asar ladidan chiqmagan holda jummalarni boyitib ijro etishgan.

Zero, tovushlarni sayqal bilan ijro etish har bir Sharq xalqlari musiqa ijrochiligiga xos an'anadir. Bu omil ohang mazmunini boyitib, xalqlar ruhiyatini ifodasi demakdir¹⁸. "*Qochirim*", "*nola*" kabi maxsus musiqiy atamalar barcha sozanda va xonandalarga ma'lum, lekin ular o'z navbatida bir-biridan ijrosi bo'yicha farq qiladi va bir necha hilga ajratiladi.

Qochirim – soddadan murakkabgacha bo'lgan melizm¹⁹larni barchasini o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, **bezak** (forshlag), **bidratma** (trell), **sayqal** (mordent) bunda misol bo'la oladi. Yana bir toifa nolalar mavjud bo'lib, ular asosan parda chertilgandan so'ng tovush sadolanishida amalga oshiriladi va asosiy kuy pardasi sifatini o'zgarishiga olib keladi, bular: **nolish**, **molish**, **kashish**, **miyang**²⁰lardir.

Bezaklar – nota yozuvi jihatdan oddiy forshlag ko'rinishida yoziladi, ijroda esa milliy ohang chiqarish uslubida tovushni sadolantirib bir-biriga bog'lab ijro qilinadi. Bezaklar bir necha ko'rinishda bo'lib, bular: **oddiy**, **qo'sh**, **uchtalik**.

Agar asosiy tovush takrorlanmasa bezak ijrosidan so'ng sado jarangi ostida torni bir chertish bilan amalga oshiriladi va nota yozuvida quyidagicha ifodalanadi.

qo'sh – asosiy tovush oldidan ikkilangan bezak bo'lib, ular turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Agar melizm va asosiy tovushlar bitta notada berilgan bo'lsa, barcha notalar ijro qilinadi. Bu esa tanbur cholg'u ijrochiligida ikkitalik *parron zarb* deyiladi. Dutorda ijro qilishda *nim rezdan* yoki *bilag zarblardan* foydalaniladi.

Amaliyotda qo'sh bezaklarni barcha tovushlari uchun alohida torni chertish shart emas. Bunday holatda chertilgan sadoni o'zida barmoqni dastadan uzmasdan pardadan pardaga o'tib erishiladi.

uchtalik – ushbu bezaklarni ijro etishda dutorning teskari zarbi mos kelib asosiy tovushga nisbatan pastroq ijro qilinadi.

Bidratma – yarim yoki bir ton oralig'idagi ikki pardani birin-ketin tez va uzluksiz ijro qilishdir²⁰. Kuy yuqoriga yo'nalganda bidratma pardadan keyin kelgan tovushga amalga oshirilsa, melodiya quyi tomon ketganda uni aksi bajariladi. Belgi sifatida nota yozuvi yuqorisiga  to'qin belgisi bilan ifodalanadi va interval oralig'iga qarab alteratsiya belgilari qo'yiladi. Ijroda ikki uslub mavjud bo'lib, *birinchisi*, bidiratmani barcha tovushlari uchun torni tez sur'atda chertish bilan amalga oshirilsa;

ikkinchisi, bidiratmanihg birinchi tovushi chertiladi, so'ng torning sadolanish davomida chap qo'l barmoqlarini ketma-ket almashinuvi natijasida erishiladi.

¹⁸ Rifatilla Qosimov – "An'anaviy cholg'u ijrochiligi" – T., 2016 y. 13 b.

¹⁹ Melizm – kuyni turli qisqa tovushlar bilan bezatuvchi belgilardir.

²⁰ Ba'zida laddan kelib chiqqan holda bir yarim ton va undan ziyod oraliqda ham ijro qilish mumkin.

Sayqal – ijro uslub bo'yicha uch yoki beshta tovushdan iborat bezak mordentni eslatadi. Melizmda bir tovush asosiy parda bo'lib, yordamchi pardaga o'tgandan so'ng albatda undan oldingi pardaga qaytishi shartdir. Bu borada bezak, asosiy pardadan ikki yoki uch barobar tez ijro qilinib, kuy ladi qarab interval asosida alteratsiya belgilari qo'yiladi. Barcha sayqallar, bir-biridan farq qiladi. Bezak belgisi sifatida mordentsimon ramzdan foydalaniladi. Uning yakunidagi ilmoqcha qayoqqa yo'naltirilgan bo'lsa, melizm melodiya bo'yicha shu tomonga, yuqori yoki quyiga qarab ijro qilinadi.

Uchta tovushdan iborat sayqal: notaning yuqori qismiga  ramzlar bilan ko'rsatiladi.

Beshta tovushdan iborat sayqal: notaning yuqori qismiga  ramzlar bilan belgilanadi.

To'lqinlatish – tovushni vaqti-vaqti bilan bir oz ko'tarish va pasaytirish bilanuning muxtasarligiga, to'laligiga va boyligiga erishiladi.²¹ To'lqinlatish kuyni ifodaviylik xususiyatini oshiradi, tovushlarni mayin, ohangdor va jozibali eshitilishini ta'minlaydi.²² Ushbu bezak nafaqat o'zbek, balki butun dunyo milliy cholg'ularida uchraydigan melizm bo'lib, har birida o'zgacha ijro qilinadi. To'lqinlatish uslubi dutor cholg'usida chap qo'l panjalarini tor ustida yumshoq joylashtirib bilagning dasta yo'nalishi bo'yicha engil harakati bilan amalga oshiriladi. Ikkinchi uslubda esa bilag ishtirok etmay qo'l tirsakgacha harakatlantirilib panjaning birinchi bo'g'inini erkin bukilishi yordamida erishiladi. Bezakni  belgisi bilan ko'rsatiladi.

Nolish²³ – ushbu melizm chap qo'l barmog'i torni mahkam bosib pardada ko'ndalang (vertical) yo'nalishda harakatlantirish bilan tovushni yarim tongacha o'zgartirib o'ziga xos bezakni amalga oshirish demakdir. Nota yuqorisiga  belgisi bilan ifodalanadi hamda asosan yarimtalik, choraktalik, sakkiztalik notalarda sadolantirib ijro qilinadi.

Nolish qo'llanilgan nota ton sifatidan tebranadi va shu jihati bilan boshqa melizlardan ajrab turadi.

Molish²⁴ – pardalarni ohista bir-birini bog'lash bo'lib, glisandoga o'xshab asarni badiiy tomonlama boyitishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chap qo'l barmoqlarini dastadan ko'tarmasdan bir tovush sadosi ostida ikkinchi yoki yana bir necha tovushlarni sirg'altirib ijro qilinishidir. Bunda applikatura muhim ahamiyatga ega bo'lib, molish turlariga qarab qo'llaniladi. Yarim va bir ton oralig'idagi molish turli hil barmoqlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Bunda kuy yo'nalishi asosiy omil hisoblanib, yuqoriga yo'nalganda melodiya bo'ylab bezakning asosiy notasiga birinchi barmoq, keyingi tovushga esa ikkinchi barmoq qo'yilgach, ikkinchi barmoq bilan glissando holatda asosiy tovushga qaytiladi;

²¹ SulaymonTahalov – "Afg'on rubobini chalishga o'rgatish metodikasi asoslari" – T., "O'qituvchi", 1983 y. 86b.

²² Odiljon Nazarov – "Qashqar rubobida o'qitish uslubiyoti" – T., "Ofset print", 2008 y. 71b.

²³ Nolish – "nola" so'zidan olingan bo'ib, forschada "yig'lash" ma'nosini anglatib, kuy yo'li yoki ashulaning bir bo'g'inini titratib cho'zishdir.

²⁴ Molish – "molash" so'zidan olingan bo'ib, forschada "silamoq" ma'nosini anglatadi.

bezak melodiyaga qarama-qarshi tomonga bajarilsa, asosiy notaga birinchi barmoq, quyi tovushga esa ikkinchi, va yana birinchi barmoq bilan glissando holatda asosiy tovushga qaytiladi. Molish bu turiga $\cap$ quyidagi ramz qo'llaniladi.

Asosiy tovush ikkinchi barmoq bilan olinib tor chertilgandan keyin sadosi ostida yarim ton pastgi tovushga birinchi barmoq, so'ng asosiy tovushdan bir ton yuqoridagi tovushga ikkinchi barmoq qo'yilib sirg'altirib yana qaytib asosiy tovushga kelib yechilishi bilan molishning yana bir turi amalda qo'llaniladi. Bu holda bezak bir yarim ton intervali oralig'ini egallaydi. Kichik va katta tertsiyalarda ijro qilinadigan molishning bu turlarida nota yuqorisiga $\triangle$ belgisi qo'yiladi.

Agar molish kvarta, kvinta va undan ortiq intervallar oralig'ida ijro qilinsa, bezak yo'nalishiga qarab yuqoriga $\sim$, pastga esa $\sim$ belgisi ko'rsatiladi. Odatda bunday oraliqdagi melizmda barmoqlar o'zgartirilmaydi, lekin sozandaning mahoratidan kelib chiqqan holda istisno bo'lishi mumkin.

Mezrobli cholg'ularda qo'llaniladigan bezak usullaridan yana biri bu – "*kashish*". Qayd etilgan milliy musiqiy bezaklar qadimdan xonanda – sozandalar tomonidan doimiy ishlatilib kelingan²⁵.

*Kashish*²⁶ni ijro qilish sozandadan mahorat hamda tajribani talab qilganligi sababli o'quvchi yoki talabaga ushbu bezakni o'rgatishdan oldin mashqlar bilan tayyorlab borish lozim.

*Miyang'*²⁷ – kashishning murakkab turilaridan bo'lib, bunda bir necha bezak mujassamlashgan holda keladi. Bir pardada yakka zarb bilan ham nolish, ham kashish bajariladi. Avval nolish, so'ng kashish kelsa $\sim$ ishora ramzi; oldin kashish kelib ketidan nolish kelsa quyidagi $\sim$ belgilar qo'yiladi.

Musiqada *dinamika*²⁸ tovush kuchi sifatida sozandaning musiqiy asar mazmun – mohiyatini ochib berishda asosiy vositalardan biri bo'lib, tovush dinamikasi orqali musiqiy bo'yoqlar vujudga keladi, asarning ta'sir kuchi oshadi va tinglovchida musiqiy asar haqidagi to'g'ri tushunchani shakllantiradi. Dinamika orqali biz kompozitor, bastakor v.k. musiqiy asarda his qilayotgan tuyg'ularining aksini topamiz albatta, lekin bu yerda yana bir faktor, sozandaning his-tuyg'usi bo'lib, u asarni ijroda qanday talqin qilishi, qay darajada ijro qilishi masalalari ko'tariladi. Bu borada kompozitor yoki bastakorlar tomonidan ilk bor yaratilgan asarni mohir, yetuk sozandalarga murojaat qilib birinchi ijrosini taminlashlari, shu bilan birga mualliflar va ijrochi sozandalar orasidagi ijodiy rishtalarning uzviy bog'liqligi hozirgi kunda ham davom etib kelmoqda. Ijod namunalari o'z navbatida asar muallifi ishtirokidagi birinchi ijrosi to'g'ri, mukammal, ijodkor yaratgan asarni mohiyatini yetarli darajada ochib berilgan holatda bo'lib, namuna sifatida qabul qilinadi. Shuning uchun bastakor asarida aksini topgan dinamikalar, ijro uslublari (shtrixlar), tezlik sur'at kabi belgilarni so'zsiz bajarish va bu belgilarga rioya qilish zarur.

Musiqiy asarda uch xil tovush balandligini yo'nalishi qo'llaniladi:

²⁵ O.Nazarov – "Qashqar rubobida o'qitish uslubi" T., 2008y. 74b.

²⁶ Kashish – "kashidan" so'zidan olingan bo'lib, forshada "tortmoq", "tortish" ma'nolarini anglatadi va ma'lum pardadan ikkinchi tovushni tortib olish bilan yuzaga keladi.

²⁷ Miyang' – dutor ijrochiligi bezaklar ifodasi uchun F.Sodiqov amaliyotidan olingan. Ilk bor Malika Ziyayeva ibora sifatida tavsiya etilgan. M.Ziyayeva – "Dutor" (F.Sodiqov ijro uslubi) – T., "Musiq" 2011y.-10b.

²⁸ *Dinamika*– yunon tilida *dinamikos* – manosi kuchli, tovush kuchi. Musiq lug'ati –91 B.

- Asta-sekin, bir tekisda, silliq tovush almashinuvi;
- Qarama-qarshi tovush almashinuvi;
- Bosqichma bosqich tovush almashinuvi²⁹.

Yuqorida aytilganlarni hamma biladi, lekin amalda esa ba'zi kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutiga bilim-ko'nikmalarini oshirish maqsadida o'qishga kirgan talabalarning aksariyatida dinamikalarni ijro qilishda noto'g'ri tushuncha shakllanganiga guvoh bo'lamiz. Bu borada ko'p uchraydigan nuqsonlar: *forte*, *fortissimo* dinamikasida torlarni qo'pol, dutor dekasiga urib nomusiqiy tovushda ijro qilish; *piano*, *pianissimo*da esa ijroda tovush sifatini pasayishi; *kreshendoni* amalga oshirishda asar sur'atini tezlashtirish, *diminuendoda* esa orqaga ketishi kuzatiladi. Dinamikani ijro qilishda ijro imkoniyatlarini baholay olmagaliklari uchun aksariyat talabalar to'liq dinamik diapazondan foydalana olmaydilar. Buning uchun ijrochi cholg'uning tovush jihatdan sifatli eng past *ppp* va eng kuchli *fff*ni aniqlab olishlari, undan so'ng barcha *pp*, *p*, *mp*, *mf*, *f*, *ff* dinamikalarni bir biridan ajratib olishlari va yuz foiz boshqara olishi zarurdir. Qolgan *crescendo*, *diminuendo*, *sf*, *sp*, *sff*, *spp* dinamikalar yuqorida aytilgan dinamikalar asosida bajariladi. Talaba o'z imkoniyatlarini anglab yetishi bilan dinamika jihatdan tovushlarni olib yurish, jumalarga e'tibor berish, asarlarni tahlil qilishdagi muammolarni tuzatishga zamin yaratadi. Bu borada malaka, ko'nikma bo'lishi uchun faqat tremolo ijro uslubida quyidagi mashqlarni chalish tavsiya qilinadi.

Dinamikaga oid mashqlar

The exercises are as follows:

- Exercise 1: A sequence of nine whole notes with dynamics: *pp*, *p*, *mp*, *p*, *mp*, *mf*, *mp*, *mf*, *f*.
- Exercise 2: A sequence of nine whole notes with dynamics: *mf*, *f*, *ff*, *f*, *mf*, *mp*, *p*, *pp*, *ppp*.
- Exercise 3: A sequence of six groups of three whole notes connected by slurs, with dynamics: *pp* < *p* < *mp*, *p* < *mp* < *mf*, *mp* < *mf* < *f*.
- Exercise 4: A sequence of six groups of three whole notes connected by slurs, with dynamics: *mf* < *f* < *ff*, *f* < *mf* < *mp*, *p* < *pp* < *ppp*.
- Exercise 5: A sequence of eight groups of two eighth notes (tremolo) with dynamics: *pp*, *ff*, *pp*, *ff*, *pp*, *ff*, *pp*, *ff*.
- Exercise 6: A sequence of ten groups of two eighth notes (tremolo) with dynamics: *sfz*, *sp*, *sfz*, *sp*, *sfz*, *sp*, *sfz*, *sp*, *sfz*, *sp*.









²⁹O.Nazarov – "Qashqar rubobi uchun gamma va etyudlar". "Musiq" T.: - 2016 yil 15 B.













III BOB. NOTA NAMUNALARI

Chorgoh

m.m.=85










2











Chorgoh II

m.m. ♩ = 80



2



Chorgoh III

m.m.=88

3

6

8

10

12

15









17

19

21









Detailed description: This is a musical score for a piece titled 'Chorgoh III'. The tempo is marked 'm.m.=88'. The score is written on a single staff in treble clef with a key signature of one sharp (F#). The time signature is 2/4. The music consists of 21 measures, grouped into nine lines of two measures each. The notation includes various rhythmic values: eighth notes, sixteenth notes, and quarter notes, often beamed together. There are also rests and repeat signs. The piece concludes with a double bar line and repeat dots at the end of the final measure.

2



Chorgoh IV

m.m.=100



Chorgoh V

m.m. = 74

5

9

13

17

21

25

31


35

40


Detailed description: This is a musical score for a piece titled 'Chorgoh V'. The tempo is marked 'm.m. = 74'. The score is written on ten staves, each containing four measures of music. The key signature is one sharp (F#), and the time signature is 3/4. The notation includes various rhythmic values such as eighth, sixteenth, and thirty-second notes, as well as rests. Measure numbers 5, 9, 13, 17, 21, 25, 31, 35, and 40 are indicated at the beginning of their respective staves.

2


44




50




55




61



6



7



7



8



Garduni buzruk

m.m. = 88

Bozgo'y

1 xona

2 xona

8

3 xona

14

20

Bozgo'y

4 xona

26

32

38

Bozgo'y

44

5 xona

50

56

The musical score is written on a single staff in treble clef with a key signature of one sharp (F#). The tempo is marked 'm.m. = 88'. The piece is divided into sections labeled 'Bozgo'y' and 'xona'. The time signatures change frequently throughout the piece, including 2/4, 3/4, 4/4, 5/4, and 6/4. Measure numbers 8, 14, 20, 26, 32, 38, 44, 50, and 56 are indicated at the start of new lines of music.

2

62 Bozgo'y

68

Garduni navo

m.m. = 88
Bozgo'y

3 1xona

5

7 Bozgo'y

9 2xona

11

13

15

16 Bozgo'y

Detailed description: The musical score is written on a single staff in 8/4 time with a key signature of one flat (B-flat). It consists of eight measures, each containing a repeat sign. The melody is primarily composed of eighth and sixteenth notes, often beamed together. Various ornaments are indicated by text above the staff: 'Bozgo'y' appears above measures 1, 7, and 16; '1xona' appears above measure 3; and '2xona' appears below measure 9. Measure numbers 3, 5, 7, 9, 11, 13, 15, and 16 are placed at the beginning of their respective measures.

Gulyoraxon va bilaguzuk

m.m.=78

5

9

13

17

21







25

29

34

38

The musical score is written on ten staves of five-line systems. The first staff begins with a treble clef, a key signature of one sharp (F#), and a 3/4 time signature. The tempo marking 'm.m.=78' is placed above the first staff. The score is divided into measures by vertical bar lines. Measure numbers 5, 9, 13, 17, 21, 25, 29, 34, and 38 are printed at the beginning of their respective staves. The notation includes various note values (quarter, eighth, sixteenth notes), rests, and accidentals (sharps, naturals). The piece concludes with a double bar line and repeat dots at the end of the final staff.



Kuygay

Y.Rajabiy

m.m.=85

4

8

12

15

18












22









26

29

32

2





Muxammasi Xusayniy

M.M. ♩ = 58

Navo maqomidan

VI-xona

mp *mp* *mf* *cresc.* *f* *f* *mp* *mf* *mf*

Bozgo'y


II xona


The musical score is written on 11 staves in G major (one sharp) and 4/4 time. The notation includes various musical symbols such as treble clef, key signature (one sharp), time signature (4/4), and dynamic markings (*mp*, *f*, *mf*). It also features articulation marks like accents and slurs, and specific performance instructions like "Bozgo'y" and "III xona".


The score begins with a treble clef and a key signature of one sharp (F#). The first staff contains a melodic line with a dynamic marking of *mp*. The second staff features a dynamic marking of *f* and the instruction "Bozgo'y". The third staff has a dynamic marking of *mp*. The fourth staff has a dynamic marking of *f* and the instruction "III xona". The fifth staff has a dynamic marking of *mf*. The sixth staff has a dynamic marking of *f* and the instruction "Bozgo'y". The seventh staff has a dynamic marking of *mp*. The eighth staff has a dynamic marking of *f*. The ninth staff has a dynamic marking of *mp*. The tenth staff has a dynamic marking of *f*. The eleventh staff has a dynamic marking of *mp*.

"Ey, sabo"

Doni Zokirov musiqasi
























Bayot I







♩ = 76







2




















Bayot II


$\text{♩} = 96 - 100$




2




84




91




98




106






113



120



4



Bayot III

$\text{♩} = 69$

The musical score for Bayot III is written in 5/4 time with a key signature of one flat (B-flat). The tempo is marked as quarter note = 69. The score consists of six systems, each with a treble and bass staff. The first staff of each system contains the melody, while the second staff contains a bass line, mostly consisting of rests. Measure numbers 5, 9, 13, 17, and 21 are indicated at the start of their respective systems. The melody features various rhythmic patterns, including eighth and sixteenth notes, and rests, often grouped with slurs. The bass line is mostly silent, with occasional notes or rests indicated by a double bar line and a vertical tick mark.

5






9







13

17

21







2











Bayot IV

♩ = 84



2



61 3

66

71

77

85

Bayot V

♩ = 160 - 168
♩ = 96 - 100

[illegible]

10

Musical notation for the 10th measure of the first system. It features a treble clef, a key signature of one flat (B-flat), and a 4/4 time signature. The melody consists of eighth and quarter notes with various accidentals (sharps and naturals). The bass line is a simple eighth-note pattern.

19

Example 19 is a single-staff piece in G major, consisting of 19 measures. The melody is written on a treble clef staff with a key signature of one sharp (F#). The piece begins with a quarter rest, followed by a quarter note G4, a quarter note A4, and a quarter note B4. The second measure contains a quarter note C5, a quarter note B4, and a quarter note A4. The third measure contains a quarter note G4, a quarter note F#4, and a quarter note E4. The fourth measure contains a quarter note D4, a quarter note C4, and a quarter note B3. The fifth measure contains a quarter note A3, a quarter note G3, and a quarter note F#3. The sixth measure contains a quarter note E3, a quarter note D3, and a quarter note C3. The seventh measure contains a quarter note B2, a quarter note A2, and a quarter note G2. The eighth measure contains a quarter note F#2, a quarter note E2, and a quarter note D2. The ninth measure contains a quarter note C2, a quarter note B1, and a quarter note A1. The tenth measure contains a quarter note G1, a quarter note F#1, and a quarter note E1. The eleventh measure contains a quarter note D1, a quarter note C1, and a quarter note B0. The twelfth measure contains a quarter note A0, a quarter note G0, and a quarter note F#0. The thirteenth measure contains a quarter note E0, a quarter note D0, and a quarter note C0. The fourteenth measure contains a quarter note B0, a quarter note A0, and a quarter note G0. The fifteenth measure contains a quarter note F#0, a quarter note E0, and a quarter note D0. The sixteenth measure contains a quarter note C0, a quarter note B0, and a quarter note A0. The seventeenth measure contains a quarter note G0, a quarter note F#0, and a quarter note E0. The eighteenth measure contains a quarter note D0, a quarter note C0, and a quarter note B0. The nineteenth measure contains a quarter note A0, a quarter note G0, and a quarter note F#0. The piece ends with a double bar line.

28





Measure 28: The melodic line continues with eighth and sixteenth notes, including grace notes. The bass staff is empty.







37

Musical notation for measures 37-42. The melody is written on a single staff with a treble clef and a key signature of one flat (B-flat). The melody consists of eighth and quarter notes, with some measures containing beamed eighth notes. The lyrics 'The Rose Tree' are written below the staff. The notation includes a double bar line at the end of measure 42.

46

Musical score for "The Rose Tree" (No. 46). The score is for a single voice and piano accompaniment. The voice part is in G major, 2/4 time, and consists of a single line of music. The piano accompaniment is in G major, 2/4 time, and consists of a single line of music. The key signature has one sharp (F#). The tempo is marked "Moderato". The score is numbered 46 in the top left corner.






4

169




177




MUXAMMASI BAYOT

$\text{♩} = 120$


I xona




6




11




17 Bozgo'y




22




27













33 II xona














38



2







4

159

Bozgo'y



164




169


rit..



173



attacca



GLOSSARIY

1. **Avj** – cho‘qqi; O‘n ikki maqom tizimida mahlum sho‘hba nomi; kuy va ashulaning yuqori cho‘qqisi.
2. **Advor** – ritm va musiqa doiralari. O‘tmishda ritm usullari va lad pog‘onalarini doira shaklidagi chiziqqa joylashtirilishining ifodasi.
3. **Ajam** – arablardan tashqari (O‘rta Osiyo va Xuroson) xalqlar, shu xalqlarning musiqa asarlari; mashhur maqom uslubidagi cholg‘u yo‘llari.
4. **Alhon** – “Lahn” so‘zining ko‘pligi; musiqa asarlarining ifodasi – kuy, ashula va boshqalar.
5. **Amal** – ijod etilgan asar; mahlum tartibda yaratilgan kuy turlaridan birining nomi. 7.Ashiyron – O‘n ikki maqom tizimidagi sho‘hba nomi, o‘n pog‘onali tovushqator.
6. **Bayot** – O‘rta Osiyoda yashagan turk qabilalaridan biri, mahlum maqom sho‘hbasining nomi. Toshkent, Farg‘onada mashhur bo‘lgan maqom yo‘llaridan biri.
7. **Barbat.** – so‘zma-so‘ziga o‘rdak siynasi; qadimiy torli cholg‘u nomi
8. **Bastai Nigor** – Nigor ismli kishi bog‘lagan “basta”; O‘n ikki maqom tizimida mahlum sho‘hba nomi.
9. **Bastakor** – kuy ijod qiluvchi, kuyga yangi shehr bog‘lovchi; oddiy kuy yoki ashulaga boshqa kuy jumllarini bog‘lovchi.
10. **Bozgo‘y** – kuy ijrosi jarayonida bir necha bor takrorlanadigan kuy jumllari ifodasi.
11. **Buzurg** – (Buzruk) so‘zma-so‘ziga, ulug‘, katta. Duvozdahmaqom va Shashmaqom tizimidagi maqom nomi.
12. **Burj** – eski astrologiya fanida o‘n ikki oyning har biri o‘z xarakteriga bog‘liq holda yilning o‘n ikki burji sanalgan. 12 maqomning har biri mahlum burjga bog‘liq holda tushuntirilgan.
13. **Buslik yoki Abu Salik.** – shu lad tovushqatoriga xos ashulaning ijro etuvchi musiqachiga nisbatan berilgan maqom nomi
14. **Bo‘hd** – ikki musiqa tovushi va uning oralig‘i, interval.
15. **Gavasht** – qadimiy musiqa tizimida Olti ovoz nomi bilan mashhur lad turlaridan birining nomi.
16. **Gardoniya** – aylanuvchi, aylanma, Olti ovozdan birining nomi. Uning gardun shakli Shashmaqom cholg‘u yo‘llarida uchraydi.

17. **Gardun** – osmon gardishi, taqdir; doyra usuli va shu usulda ijro etiladigan Shashmaqomning cholgʻu boʻlimidagi qismi.
18. **Duvozdahmaqom** – Oʻn ikki maqom; Oʻn ikki turli pardadan boshlanib ularning lad tovushqatoriga mos keladigan kuy va ashulalar majmuasi.
19. **Dugoh** – tovush chiqarib oladigan ikki oʻrin, parda; ikkinchi parda; ikki pogʻonali tovushqatordan iborat boʻlgan Oʻn ikki maqom tizimidagi shoʻhba nomi; Shashmaqom tizimidagi mahlum maqom nomi.
20. **Jamh** – turli diapazondagi tovushqator; maqomlar ham jahmlar jumlasiga kiradi.
21. **Jins** – lad tovushqatorini, uning pastki va yuqorigi qismini tashkil etuvchi tarkibiy qismlari, toʻrt-besh pogʻonali tovushqatorlar turi – tetraxord va pentaxord.
22. **Zangula** – soʻzma-soʻziga qoʻngʻiroq; Oʻn ikki maqom tizimidagi mahlum maqom nomi.
23. **Zirafkand** – toʻshak va pastga sakrash mahnosida boʻlib, Oʻn ikki maqom tizimiga kirgan maqom nomi.
24. **Zovuliy** – Eron shaharlaridan biriga nisbatan berilgan Oʻn ikki maqom shoʻhbalaridan birining nomi.
25. **Ilmi advor** – oʻtmishda ritm va musiqa doiralari haqida bahs etuvchi fan.
26. **Ilmi musiqiy** – musiqiy ilmi, musiqa asarlari haqidagi fan. Oʻrta asarlarda matematika fanlarining biri sanalib, unda musiqa nazariyasi bahs etilgan.
27. **Iroq** – shu mamlakatga nisbatan berilgan Duvozdahmaqom va Shashmaqom tizimlariga kiruvchi mahlum maqom nomi.
28. **Isfahon** – Eronning mashhur shaharlaridan biri, Duvozdahmaqom tizimida maqom nomi.
29. **Isfahonak va Ruyi** – Oʻn ikki maqom tizimiga kirgan mahlum shoʻhba nomi.
30. **Iqah(iyqoh)** 1. musiqa tovushlari va umuman musiqa asarlarining ijro etish uslubi (bunda mashq qilish koʻzda tutiladi); 2. Ritm oʻlchovi; musiqa asarlari va shehrlardagi vaznlar tizimi; shunday vaznlarni oʻrganuvchi maxsus ilm.
31. **Maqom** – istiqomat oʻrni, parda; turli kuy va ashulalarning musiqa cholgʻularida boshlanadigan pardasi; muayyan lad tovushqatori va unga mos keladigan musiqa asarlari majmuasi. Qarang: Duvozdahmaqom va Shashmaqom.
32. **Moya** – asl, sof; olti ovozdand birining nomi. Qarang: Ovoz.

33. **Mohur** – g'amgin kuy; O'n ikki maqom tizimida mahlum sho'hba nomi.
34. **Mubarqa** – pardaga o'ralgan; O'n ikki maqom tizimida mahlum sho'hba nomi.
35. **Mujannab** – qo'shni parda; udning uchinchi pardasining nomi; butun tondan bir komma – 24 tsent kichik interval.
36. **Mustahall** – ashuladan oldin chalinadigan cholg'u muqaddimasi.
37. **Muxayyar** – tanlab olingan; O'n ikki maqom sho'hbalaridan biri va Shashmaqomdagi Iroq maqomining sho'hbasi.
38. **Muxammas** – beshli; doyra usuli va shu usulda ijro etiladigan maqomlar cholg'u qismlari ifodasi.
39. **Navo (ohang, kuy)** – O'n ikki maqom va Shashmaqom tizimida mahlum maqom nomi.
40. **Navro'z** – Sharq xalqlarida yangi yil bayrami; olti ovozdan birining nomi. Qarang: Ovoz.
41. **Navro'zi Ajam** – O'n ikki maqom tizimida mahlum sho'hba nomi; Shashmaqomda Segohning Nasr sho'hbasi. Qarang: Nasr.
42. **Navro'zi Arab** – Arab Navro'zi. O'n ikki maqom tizimida arablarga nisbatan berilgan sho'hba nomi.
43. **Navro'zi Bayotiy** – Bayot nomli qabila Navro'zi; O'n ikki maqom tizimidagi sho'hba nomi. Qarang: Bayot, Navro'z.
44. **Navro'zi Xoro** – tog'lik mamlakatlarda yashaydigan xalqlar Navro'zi; O'n ikki maqom tizimida mahlum sho'hba nomi; Shashmaqom tizimida Segoh maqomi sho'hbasining nomi.
45. **Nayriz** – O'n ikki maqom tizimida mahlum sho'hba va tojik xalq kuylaridan birining nomi.
46. **Nihovand** – Iroqdagi bir shahar, O'n ikki maqom sho'hbalaridan biri.
47. **Nuhuft** – pinhon; O'n ikki maqom tizimidagi mahlum sho'hba nomi.
48. **Ovoz (ovoza)** – lad tovushqatorlarining bir turi. Aks sado, maqomlarga nazira qilib ishlangan musiqa asari.
49. **Panjgoh** – O'n ikki maqom tizimida besh pog'onali sho'hba nomi.
50. **Parda** – maqom; musiqa cholg'ulari dastasidagi to'siqlar, pardalar.
51. **Peshrav** – yuqoriga harakat etuvchi kichik motivlardan tuzilgan mahlum tartibda ishlangan kuy shakli.
52. **Rakb** – otliq; maqom sho'hbalaridan birining nomi.
53. **Rahoviy** – Rum shaharlaridan biriga nisbatan berilgan 12 maqomlardan birining nomi.

54. **Rost** – mos keluvchi; Duvozdah va Shashmaqom tizimiga kiruvchi maqom nomi.
55. **Sabo.** – shabada yoki Navro'zi Sabo – Duvozdahmaqom va Shashmaqom tizimlarida mahlum sho'hbaning nomi
56. **Salmak** – lug'aviy mahnosi nomahlum. Olti ovozlardan birining nomi.
57. **Samoiy** – mahlum doyra usulining va shu usulda ijro etiladigan kuyning nomi.
58. **Saqil** – og'ir, vazmin doyra usulida ijro etiladigan maqomlarning cholg'u qismi.
59. **Segoh** – uch o'rin, parda; O'n ikki maqom tizimiga kiradigan sho'hba nomi; Shashmaqom tizimida mahlum maqom nomi.
60. **Tarjeh** – qaytarma ohang aylanmalaridan tuziladigan kuy; Shashmaqom cholg'u bo'limlaridagi ikkinchi qism.
61. **Tasnif** – ijodiy yaratilgan asar, maqomlar cholg'u bo'limidagi birinchi kuyning nomi; mavzu.
62. **Ud** – qadim zamonlardan mashhur bo'lgan to'rt va besh torli musiqa cholg'usi. Uning qorin qismida katta bo'lib, mezrob bilan chertib chalinadi.
63. **Uzzol** – pastga tushish, bo'shatish, sakrash; Shashmaqom tizimlarida ma'lum sho'hba nomi; o'z harakatida to'satdan kvarta pastga sakraydigan kuy tuzilmasi.
64. **Ushshoq (oshiqlar)** – O'n ikki maqom tizimida muayyan maqom nomi, Shashmaqomda mashhur sho'hbaning nomi.
65. **Xona** – kuy jumla (satr)larining ifodasi.
66. **Chorgoh** – to'rt pardali tovushqatordan iborat bo'lgan O'n ikki maqom sho'hbalaridan birining nomi; Shashmaqom tizimidagi Dugoh maqomi kitobiga notalari kiritilgan; Toshkent- Farg'ona maqom yo'llaridan.
67. **Shashmaqom** – olti xil lad tovushqatoriga mos keladigan turkumli musiqa asari (Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq maqomlari).
68. **Shahnoz** – kelinchak; O'n ikki maqom tizimida olti ovozdan birining nomi.
69. **Sho'hba** – O'n ikki maqom tizimiga kirgan mahlum lad tovushqatorlari: maqomlarning shoxobchalari.
70. **O'n ikki maqom** – Qarang: Duvozdahmaqom.
71. **Qonun** – chang turidagi qadimiy musiqa cholg'usi. Uni barmoqlarga angishvona kiyib, tirnab chalingan.
72. **Hafif** – yengil doyra usullaridan birining nomi.
73. **Hijoziy** – musulmonlarning muqaddas shaharlari o'rnashgan pastekislik; O'n ikki maqom tizimidagi mahlum maqom. O'rta Osiyoda Segoh iborasi bilan mashhur.

74. **Hisor** – Tojikistondagi bir shahar nomi va O‘n ikki maqom tizimidagi sho‘hba nomi.
75. **Humoyun** – baxtli, shohona; maqom tizimida mahlum sho‘hba nomi.
76. **Husayniy** – O‘n ikki maqom tizimidagi maqom nomi, Shashmaqomda Dugoh va Navo maqomlarining Nasr sho‘hbalarining nomi.
77. **Avj** – cho‘qqi; O‘n ikki maqom tizimida mahlum sho‘hba nomi; kuy va ashularning yuqori cho‘qqisi.
78. **Advor** – ritm va musiqa doiralari. O‘tmishda ritm usullari va lad pog‘onalarini doira shaklidagi chiziqqa joylashtirilishining ifodasi.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Fargʻona–Toshkent maqom cholgʻu yollaridan.	
1.1 Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Fargʻona–Toshkent maqom cholgʻu yoʻllaridan birini tanlash. Tanlangan asarning audio va video yozuvlari bilan tanishish.....	5
1.2 Asarning usulini tahlil qilib oʻrganish.....	26
II bob. Amaliy qism	
2.1 Tanlangan cholgʻu yoʻlini nota matnlariga qarab ijro etish.....	32
2.2 Asarni cholgʻularga boʻlish.....	35
2.3 Asarning melizmatikasi va dinamikasi ustida ishlash.....	51
III bob. Nota namunalar	
Chorgoh.....	58
Chorgoh II.....	60
Chorgoh III.....	62
Chorgoh IV.....	64
Chorgoh V.....	65
Garduni Buzruk.....	67
Garduni Navo.....	69
Gulyoraxon va bilaguzuk.....	70
Kuygay.....	72
Muxammasi Xusayniy.....	75
Ey, sabo.....	77
Bayot I.....	80
Bayot II.....	85
Bayot III.....	89
Bayot IV.....	92
Bayot V.....	95
Muxammasi Bayot	99
Glossariy	103

Shamaxmud Sharaxmetov

CHOLG'U ANSAMBLI MAHORATI

O'quv qo'llanma

O'quv qo'llanma muallifning tahririda taqdim etilgan.

O'quv qo'llanmada keltirilgan faktlar, atoqli otlar va boshqa ma'lumotlarning aniqligiga, hamda imloviy xatolar uchun javobgarlik muallifning zimmasidadir.

7813



“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 03.10.2025.

“Liberation Serif” garniturası. Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog'i 6,7. Shartli bosma taboq 12,8.

Adadi 100 nusxa. Ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru

[t.me/ Bookmanyprint](https://t.me/Bookmanyprint) ☎ +998 99 180 97 10

Shamxud Sharaxmetov

CHO'G'U ANSAMBLI MAHORATI

 **BOOKMANY
PRINT**
publishing company

ISBN 978-9910-06-736-5



9 789910 067365